

ЎКТАМ САДИН


БАРДОШ
ТОНГИ

ШЕЪРЛАР

Тошкент
«Янги аср авлоди»
2007

Ўқтам Садиннинг шеърларида ўзига хос ҳалқона оҳанг бор. Шоир ўз шеърларида белоён дашт манзараларини чизишга ҳаракат қиласди. Ҳудудсиз кенгликларда яшётган дашт одамларининг бироз тўпори, аммо бегубор қалб оламини куйлайди.

Азиз китобхон, муалифнинг сизга тақдим этаётган ушбу шеърий мажмуаси кўнглингизга илиқлиқ бахш эта-ди, деган умиддамиз.



10 33745
182

ISBN 978-9943-08-169-7

© Ўқтам Садин «Бардош тонги». «Янги аср авлоди»,
2007 йил

ХАЙРЭНДИ

Хайр энди сен менга бегона жоним,
Кетяпсан ўзга ишқ йўлакларидан.
Сен бир кун жилмайиб боқсанг жаҳоним
Синган ишқ кўзгусин бўлакларидан.

Балки суратингни чизарман бир кун,
Сўнг тўйиб йиғларман, босиб лабимга.
Майли йиғлаб ўтай, сен эса кулгин,
Сен кулиб киргансан чунки қалбимга.

Кетяпсан юракка қолдириб армон,
Қалбимда ҳис-туйғу, муҳаббат сўлди.
Энди висол йиғлаб, кулмоқда ҳижрон,
Фанимлар хоҳиши ижобат бўлди.

Энди ишқимизнинг митти қабрини,
Қалбимдан қазарман ва қўяман тош.
Лек қайдан топаман севги сабрини,
Сенсиз яшамоққа етарми бардош.

Хайр энди сен менга бегона жоним,
Кетяпсан ўзга ишқ йўлакларидан.
Сен бир кун жилмайиб боқсанг жаҳоним
Синган ишқ кўзгусин бўлакларидан.

1996 йил

СОГИНЧЛАР САРҒАЯР

Согинчлар сарғаяр қалбим даштида,
Ботиний очунда минг хаёл, минг ҳис.
Ўтаётган умримнинг қолган гаштида,
Наҳот учрамаса ўша сулув қиз.

Мен уни тушимда тушлар кўраман,
У йиғлар қўшилиб йиғлайди дилим.
Кўкайим кесилар кейин кўнаман,
Бардошнинг боғида сўлгандек гулим.

Хаёлан овута бошлайман қучиб,
У эса қарғайди фаюр ҳижронни.
Армонлар юракка ўтади кўчиб,
Наҳотки ишқнимас асрабмиз жонни.

Ишқ пайдо бўлдию висол бўлмади,
Мұҳаббат юртидан қайтмадик ғолиб.
Бахтнинг ғанимлари оқ йўл бермади,
Мен уни ойларга қочмабман олиб.

Согинчлар сарғаяр қалбим даштида,
Ботиний очунда минг хаёл, минг ҳис.
Ўтаётган умримнинг қолган гаштида,
Наҳот учрамаса ўша сулув қиз.

1996 йил.

АСРАЙДИ ТАНГРИМ ВА ДҮСТЛАРНИНГ МЕҲРИ

Эй, Тангрим бахтингдан улаш қалбимга,
Кўнглимга шоҳ эмас қул қил ғамларни.
Кулгилар ҳадя эт энди лабимга,
Севиниб кутайин мен ҳам тонгларни.

Бу азоб, бу андуҳ урди бадимга,
қужғондир теграмда телба хаёллар.
Мен қачон ўхшайман ахир одамга -
Қачон кўкрагимга тегар шамоллар?!

Наҳот мен ғам учун етилган бўлсам,
Унда нега ўсдим не учун ундин.
Софлигим йўқотдим, бўлдим гоҳ мулзам,
Барига чидадим, барига кўндин.

Кўндин ғанимларнинг фийбатларига,
Йўқотмоқчи бўлди туйғу ҳисларим.
Ёмон кунларимда қувватлагувчи,
Яхшиям бор экан содик дўстларим.

Биламан бир кун баҳт келар бирталай,
Кўзимга сингади севинчнинг сеҳри.
Мени буколмагай ғамлар ҳарқалай,
Асрайди Тангрим ва дўстларим меҳри.

2000 йил

АЁЛИМГА

Бетон уй, түрт девор гүшамиз дейсан,
Биримиз иккимас, ўшамиз дейсан.
Кетайлик қишлоққа күчамиз дейсан.
Хозирча бошимда гүжғон хаёлим,
Қишлоққа кетамиз бир кун аёлим.

Түйга йиғинайлик топсак бир тийин,
Дейсан лек шоирлар бойиши қиин.
Мен сени овутыб шу сүзни дейин,
Хозирча бошимда гүжғон хаёлим,
Биз ҳам түй қиласын бир кун аёлим.

Мен ҳам соғинаман, айтсам ростимни,
Қишлоқда қолдирған шиддат-шаҳдимни
Болалигим ўтган дала-даштимни.
Хозирча бошимда гүжғон хаёлим,
Кезармиз даштарни бир кун аёлим.

Бир куни қишлоққа бориб яшаймиз,
Армоннинг бошини ёриб яшаймиз.
Бизлар ҳам кексайиб, қариб яшаймиз,
Хозирча бошимда гүжғон хаёлим,
Армонсиз яшармиз бир кун аёлим.

Қалбимда назмдан ҳислар бор зоҳир,
Шеър ёзмай қўйганим ўлганим ахир.
Биламан шоирга ёр бўлмоқ оғир,
Ҳозирча бошимда ғужғон хаёлим,
Энди тушунарсан мени аёлим.

1997 йил.

СЕН ҲАҚДА ШЕЪР БИТСАМ

Сен ҳақда шеър битсам азизам тушун,
Мақтасам лаб, кўзи, ёноқларингни.
Билмайман, соғиниб қоламан нечун,
Бегубор тикилган нигоҳларингни.

Шунда шеър ёзаман, сенга атайлаб,
Айтмоқчи бўламан юракдан бир сўз.
Лекин сен ўйлама шеър билан сийлаб,
Сени аврамоқчи эмасман эй, қиз.

Ишқталаб эмасман тингла, бокирам,
Нигоҳингдан фақат шеърлар излайман.
Чунки сен бир қизга ўхшайсан, бирам,
Мен уни эсласам ҳануз бўзлайман.

Сен унга у сенга жуда ўхшайди,
Кўзлари, ой юзи, гулгун ёноғи.
Ўша қиз қалбимда ҳамон яшайди,
Ҳамон юрагимни ўртар фироги.

У энди йироқда, қалбим қийноқда,
Лекин хотирамдан ўчмайди ҳануз.
Софинглар сарғайған армон юракда,
Мен ундан у мендан бехабар, афсус.

Ҳижронга қолғанда висолнинг куни,
Мұхаббат гуллари сўлаверади.
Фақат битта юпанч соғинсам уни,
Мен сени учратгим келаверади.

Сен ҳақда шеър битсам азизам тушун,
Мақтасам лаб кўзи, ёноқларингни.
Билмайман соғиниб қоламан нечун,
Бегубор тикилган нигоҳларингни.

АЙТ, НЕЧУН КЕЛДИНГУ КЕТЯПСАН НЕЧУН

Айт, нечун келдингу кетяпсан нечун,
Етказиб етказмай васлинг аршига.
Ё сенга боғланиб қолганим учун,
Ташлаб кетяпсанми мени Қаршига.

Сенсиз юрагимда сарғаяр соғинч,
Лабларим қумсайди дудоқларингни.
Наҳотки топганим армону, ўкинч,
Қандай унутаман нигоҳларингни.

Кетяпсан қалбимга ғамлар йиғилди,
Майли кет, ўзимдан ўзингни совут.
Майли хаёлингдан қилгин қувғинди,
Майли унутақол, мени bemavrid.

Лекин мен унутмам ишқ хотиридан,
Ўчмайсан умидим чироги ёниқ.
Бир куни қайтарсан ҳижрон юртидан,
Бир куни қайтарман қалбингга аниқ.

Айт, нечун келдингу кетяпсан нечун,
Етказиб етказмай васлинг аршига.
Ё сенга боғланиб қолганим учун,
Ташлаб кетяпсанми мени Қаршига.

1993 йил

ЧИН ДҮСТ

(дүсттим Асадга)

Иккала дүст ҳамдарду ҳамдам,
Яширмайди бўлса сирини.
Яхши кунда, ёмон кунда ҳам,
Йўқлаб турар бири, бирини.

Чин дўстликка етади-да дарз,
Гар ўртага аралашса пул.
Бир-биридан сўрамайди қарз,
Лекин сўрар ўзаро кўнгил.

Ўртасида мәҳрдан күприк,
Ишонч деган юксак қоя бор.
Бир-бирига гапирмас ўтрик,
Дўстликка хос содиқ ғоя бор.

Бу дўстликка айтаман таҳсин,
Ҳисларимни қоғозга қориб.
Ҳа, дунёни гўзалик билан
Чин дўстлик ҳам қолар қутқариб.

2006 йил

БУ ҚИЗ БУНЧА СУЛУВ-А

Бу қиз бунча сулув-а,
Оҳу кўз, ол ёноқли.
қунча лаб, оқ билагу,
Нозиккина бармоқли.

Юрагидан сўзласа,
Дил сўзи дил кўприги.
Оқ юзига соябон,
Узун, узун киприги.

Қулоғидан ўпади,
Ой балдоқли зираги.
Тунда юрса тун ёруғ,
Шуъланинг йўқ кераги.

Бағрига бир босса деб,
Қизғалдоқлар мұлтирап.
Сочларининг учида,
Фаришталар ўлтирап.

Сочининг ҳар толаси,
Қалб созига тор бўлгай.
Бу қизнинг дил шиори
Иффат, ибо, ор бўлгай.

Қора қошин чимирса,
Мисли қалдирғоч қанот.
Шу қиз ғам чекса агар,
Бўлади-ёв қиёмат.

Сой бўйида юзини,
Ювса ёмғир ийманиб,
Ҳуснини бир кўрмоққа,
Келар осмон энкайиб.

Ўтса боғлар оралаб,
Сочиб ифор, атрини.
Гуллар шаксиз йўқотар,
Ўзларининг қадрини.

Ногоҳ тушса нигоҳлар,
Шу қыз пару пайкарга.
Ҳайратланиб йигитлар,
Айланади "ҳайкал"га.

Таъриф этдим гүзәлни,
Юрак құрғыр этди "жиз".
Нимагадир тушимга,
Кираверар ўша қыз.

1998 йыл

СЕНСИЗ ЮРАГИМГА СИҒМАДИ БАҲОР

Яна яшилланди теварак атроф,
Лек менинг күнглиминг кулбаси хароб.
Ҳижроннинг қўлидан ичаман шароб,
Қалбим осмонидан ёғаверар қор,
Сенсиз юрагимга сиғмади баҳор.

Тақдирга тан берди талпингган диллар,
Ўртада айрилиқ энди минг йиллар.
Лек ўзга қўлларга тутмадим гуллар,
Қалбим осмонидан ёғаверар қор,
Сенсиз юрагимга сиғмади баҳор.

Васлингсиз улғайдим, униб яшадим,
Гоҳ ёндим гоҳ күйдим, сўниб яшадим.
Барига чидадим, кўниб яшадим,
Қалбим осмонидан ёғаверар қор,
Сенсиз юрагимга сиғмади баҳор.

Баҳор ҳам ўтяпти, сўлди бойчечак,
Гуллар асролмадим сенга бир қучоқ.
Ёқсан армонларим бўлар бир ўчоқ,
Қалбим осмонидан ёғаверар қор,
Сенсиз юрагимга сиғмади баҳор.

Ой юзли фариштам, кўзлари мунглим,
Юрагим даштида улғайган гулим.
Оймидинг, кунмидинг етмади қўлим,
Қалбим осмонидан ёғаверар қор,
Сенсиз юрагимга сиғмади баҳор.

1997 йил

ЭСЛАМА

Биламан, бир куни эслайсан маҳзун,
Титганча хотирот сандиқларини.
Суратимга боқиб йиглайсан беун,
Қарғайсан дунёнинг андуҳларини.

Сүнг күнглинг чўқади бир лаҳза, бир он,
Ва бирдан тугайди ғамлар эртаги.
Шунда унутишга топасан имкон,
Яна яшилланар қалбинг куртаги.

Ҳали олдиндадир сен кутган ҳаёт,
Үйлама на ранжу, на-да гинам бор.
Үртамиизда фақат сағир муҳаббат,
Демак, эсламоққа арзир нимам бор.

Нимам бор? Бори ҳам хира хотира,
Ва мажруҳ юракда ишқ бор бир ҳовуч.
Бир ишқки, ўзингдек эди бокира,
Афсус, асролмадик, асролмадик ҳеч.

Сен уни, менга-ку унутмоқ оғир,
Токи яшаяпман, токи тирикман.
Лек сенинг борлигинг ўзи баҳт ахир,
Сен топган баҳтларга пинҳон шерикман.

Ишқнинг водийсида кезсам-да сарсон,
Муҳаббат китобин бўзлаб ёпарман.
Йўқ энди мен сени изламам гирён,
Изласам қалбимдан излаб топарман.

1999 йил

... НИНГ ШЕЪРИ

Уриндим, ҳаётим тушмади изга,
Тонгги насим каби слиб, йитяпман.
Етиб боролмадим ёрқинроқ рўзга,
Афсуски мангулик сари кетяпман.

Қувончимдан кўра ғамим кўп бўлди,
Нечун баҳт тансиқ-а, алам зиёда.
Қуридим, қақшадим мана чўп бўлдим,
Қийналиб яшабман, билсан дунёда.
Аслида дунёга келган кунимоқ,
Оққушга айланиб, кетмабман учиб.
Кўкда бургутларга см бўлсан ахир,
Бунча азобларни ётмасдим қучиб.

Мен энди дунёдан озод этилдим,
Йўқ менга ачинманг, ачинманг сира.
Бу дунё ғамингдан энди қутилдим,
Мендан қолаяпти хира хотира.

2002 йил

ОФИР КУН

Бугун юрагимга сиғмади қил ҳам,
Нимадандир бугун түлмади күнглил.
Сүлгандек қалбимда муаттар гул ҳам,
Негадир ишга ҳеч бормади қўлим.

Ҳеч ким бермаганди дилимга озор,
Мен ҳам ранжитмадим кимнидир ахир.
Нега паришонман, күнглил уйи тор,
Нега бугунимнинг ўтмоғи оғир.

Ҳарнечук ғамлардан эдим-ку йироқ,
Юракда йўқ эди зарра тугуним.
Шукурки, шодлигим, бахтим бор бироқ,
Нега панд бермоқда унда бугуним.

Дейману ва бирдан топаман сабот,
Орзулар армонга бўлар кушанда.
Э, нега бўлмади десам кайфият,
Ахир душанба-ку бугун душанба.

2002 йил

* * *

Бир дўстим билгандек соқийлик сирин,
Ўқиди Хайёмнинг уч-тўртта шеърин.
Менга ҳам май сузди, ичмайман десам,
У деди: бўлмасам қилиб бер "ширин".

Ёнимда ўтирган ўғлим ҳайрон, лол,
Бир зум хаёлотга, ўйларга толди.
Мен шириң қиласман деди-ю дарҳол.
Бир қошиқ шакарни қадаҳга солди.

2002 йил

* * *

Хув жулдур кийимли одамга қараб,
Кимдир ижирғанди, кимлардир кулди.
Бир инсон ўрнида кўрмади ё раб,
Сўзламоқ бўлганди сўзини бўлди.

Муносиб эмас деб, бундайлар тўрга,
Пойгакдан бир жойни зўр-баъзур берди.
Сўнг мазах қилдилар, урдилар ерга,
У йиглаб ўзини кўчага урди.

Инсонлар қалбгамас кийимга қараб,
Муомила қилмоқни қайдан юқтириди.
Кийимлари башанг, қалблари хароб,
Кимсалар бир мўмин кўнглин чўктириди.

1997 йил

БОЛАЛИГИМ

Чўпни от деб, миниб чопган далаларим,
Бошим силаб, эртак айтган момоларим.
Мурғак таним сийпалаган саболарим,
Қайтмас бўлиб қайга кетдинг болалигим?

Подаларнинг ортларида изларим бор,
Ўйинқароқ энг беғубор кезларим бор.
Бийрон тилли, жовдираган кўзларим бор,
Қайтмас бўлиб қайга кетдинг болалигим?

Қўрққанимда ширингина титроғларим,
Тиззамгача келган илиқ тупроқларим.
Сочимдан ҳам кўп эди-ку ўртоқларим,
Қайтмас бўлиб қайга кетдинг болалигим?

Дала-даштга, ўтлоқларга ўртоқ эдинг,
Катталарнинг кўнглидаги куртак эдинг.
Болалигим, сен тугамас эртак эдинг,
Қайтмас бўлиб қайга кетдинг болалигим?

Сен наэдимда бир юлдузсан чақнайвергин,
Хаёлатим эшигидан ҳаттайвергин.
Ҳеч бўлмаса хотирамга қатнайвергин,
Қайтмас бўлиб қайга кетдинг болалигим?

2002 йил

ЁЛГОНЧИ ЁР

Қүёш қилди оталик,
Ой кел дебон йўқлади.
Тўда-тўда юлдузлар
Ёнгинамда ухлади.

Булутларнинг бағрида,
Ётиб олдим дустаман.
Токи кузак келгунча
Шу жойларда ўсаман.

Ёлғончи ёр ердадир,
Мен булутлар қатида.
Менга берган ваъдаси,
Қолди ёзган хатида.

Ерда юриб хор бўлдим,
Тортдим ҳижрон жабрини,
Осмонларда синайман,
Муҳаббатим сабрини.

Ой, юлдузлар сирдошим
Мен уларга оғаман.
Ёлғончи ёр тўйига,
Ёмғир бўлиб ёғаман.

2002 йил

ФАЛАМИС

Үз қалбини ўзи титтан
қаламис йүқ ундан ўтган.
Уни ҳасад адо этган,
Күнгил уйи доим туман,
Уни бир кун ейди гумон.

Шубҳа унинг дўсти ёри,
Ёлғон, яшиқ сўзин бари.
Ҳам лафзи йўқ, ҳам йўқ ори,
Күнгил уйи доим туман,
Уни бир кун ейди гумон.

Одам бўлса у ҳам кошки,
Қалбида йўқ меҳр ишқи.
Ҳар нарсага келар рашки,
Күнгил уйи доим туман,
Уни бир кун ейди гумон.

Кундузни ҳам тун деб ўйлар,
Ҳазилни ҳам чин деб ўйлар.
Соясини жин деб ўйлар.
Күнгил уйи доим туман,
Уни бир кун ейди гумон.

Юрар мудом иззатталаб,
Билмас нима гуноҳ, савоб.
Ўз ёғига ўзи кабоб,
Кўнгил уйи доим туман,
Уни бир кун ейди гумон.

Сўзлаёлмас дилин очиб,
Гуноҳлари кетган ошибб.
Бундайлардан қутул қочиб,
Кўнгил уйи доим туман,
Уни бир кун ейди гумон.

1997 йил

АЁН БЎЛАР ОХИРАТДА

Бу дунёда яхши киму ёмон кимдир,
Десам, барча елка қисар, барча жимдир.
Ҳамма ўзин фаришта дер, бошим хумдир,
Кетаяпмиз манзил сари яғир отда,
Охиратда аён бўлар, охиратда.

Гуноҳкор Ким, гуноҳсиз ким билиб бўлмас,
Фам бошинга соя солса кулиб бўлмас.
Агар ажал йўқламаса ўлиб бўлмас,
Кетаяпмиз манзил сари яғир отда,
Охиратда аён бўлар, охиратда.

Ота-бала ўртасида муроса йўқ,
Мол дунё деб, бир-бирига йўлласа ўқ.
О, Аллоҳим ўйлайверсам хулоса йўқ,
Кетаяпмиз манзил сари яғир отда,
Охиратда аён бўлар, охиратда.

Одамзотни тортиб бирор нафс ўпқони,
Ноҳақнимас ҳақни тутар давр қопқони.
Гоҳ разолат, гоҳ жаҳолат бор топгани,
Кетаяпмиз манзил сари яғир отда,
Охиратда аён бўлар, охиратда.

Тавба, дейман ёқам ушлаб ҳайронаман,
Бу кетишда кўнгил уйи вайронаман.
Дардинг ёздим бир шоиру девонаман,
Кетаяпмиз манзил сари яғир отда,
Охиратда аён бўлар, охиратда.

2002 йил

ДЕҲҚОН ЭЛИМ

Юксалтириб осмон қадар хирмонини,
Аямасдан қишин-ёзин ўз жонини,
Топганда ҳам ҳалол топар туз, нонини,
Орзуларин уруғ каби эккан элим,
Юраги оқ пахтасидай деҳқон элим.

Омад ели зсар тўртта томонидан,
Ўт чақнайди дала кезса тобонидан.
Асрасинлар илло кўзнинг ёмонидан,
Орзуларин уруғ каби эккан элим,
Юраги оқ пахтасидай деҳқон элим.

Саховатнинг саҳнасида ўрни бордир,
Бири фермер бири эса тадбиркордир.
Ишнинг кўзин билганларга Худо ёрдир,
Орзуларин уруғ каби эккан элим,
Юраги оқ пахтасидай деҳқон элим.

Деҳқон отлиғ илм тўла мактабингдан,
Баҳра олар диллар меҳр офтобингдан.
Айланайин тер анқиган якталингдан,
Орзуларин уруғ каби эккан элим,
Юраги оқ пахтасидай деҳқон элим.

Шаҳардаман, "ҳорманг", деб хол сўролмадим,
Сирим очиб ё сендан бир сир ололмадим.
Лек шаънинга шеър ёзмасдан туролмадим,
Орзуларин уруғ каби эккан элим,
Юраги оқ пахтасидай деҳқон элим.

2006 йил

МЕЗБОН

Барчаси жим эди, барчаси ҳорғин,
Негадир ҳеч кимга ёқмас эди гап.
Даврага нимадир етишмас тағин,
Нимадир кам эди бўлмасди пайқаб.

Мезбоннинг юзида хавотир, ҳадик,
Даврага қаради зимдан аланглаб.
Бу жимлик сирини тушунмади лек,
Ва бирор сабабни олмади англаб.

Ноз-неъматга тўла эди дастурхон,
Роса безатганди топиб имконни.
Нега емаяпти бирорта меҳмон,
Шу савол қийнарди шўрликни мезбонни.

Шунда андишани бир четга суриб,
Меҳмонлардан бири бошлади сўзни.
Шу пайтгача қанча даврани кўриб,
Бу қадар ноқулай сезмовдим ўзни.

Сўнг мезбонга деди, чидолмай охир,
Нимага анқайиб турибсан ё раб.
Билсанг гапни-гапга қўшиш-чун ахир,
Даврага етишмай турибди шароб.

Меҳмонлар кўзлари тортдилар равшан,
Шу дангал одамга "раҳмат" дедилар.
Шунда эсларига тушди дастурхон,
Шундан сўнг таомдан бир-бир ёдилар.

Даврада сузила бошланди шароб,
Эҳ, мезбон шунга ҳам рози зди-да.
Меҳмонлар алжирап, мезбон мўлтираб,
Ўтирап, чунки у ҳожи зди-да.

2006 йил

ТАНГРИНИНГ АЙТГАНИ БЎЛАДИ

Тилингга эрк берма, ҳар нарса дема,
Демагин, бу дунё чўкаётган кема.
Кимлар нима десин, десинлар нима,
Тангрининг айтгани бўлади.

Ўзгалар устидан қаҳқаҳа отма,
қафлат уйқусидан уйғонгин, ётма.
Ҳар жойда бўлмағур гапларни сотма,
Тангрининг айтгани бўлади.

Катта кетмагину, катта сўзлама,
Нафснинг пойгасида марра кўзлама.
Ҳаром пул ортидан бойлик излама,
Тангрининг айтгани бўлади.

Кечаги фаришта бугун гуноҳкор,
Бугунги гуноҳкор эрта ҳокисор.
Ҳаётда шунақа сир-синоат бор,
Тангрининг айтгани бўлади.

Телбадай тентираб ҳар ёна чопма,
Майли дунё йиғма обрў ҳам топма.
Ва лекин эзгулик эшигин ёпма,
Тангрининг айтгани бўлади.

2002 йил

ИҚРОР

Учратдим баъзида ранги сомонни,
Кўриб кўрмасликка олдим ёмонни.
Ҳақ деб айтолмадим ҳақ бир томонни,
Вақт келди дардимни сенга ёришга,
Набирам бобонг ҳам эмас фаришта.

Ишқ деса менинг ҳам бор дилда оҳим,
Гўзал нигоҳларни алдаб нигоҳим.
Ўзимга яраша қилган гуноҳим,
Вақт келди дардимни сенга ёришга,
Набирам бобонг ҳам эмас фаришта.

Үйласам баъзида юрагим зада,
Шунданми ғамларим бўлди зиёда.
Мен ҳам қийналганман, болам дунёда,
Вақт келди дардимни сенга ёришга,
Набирам бобонг ҳам эмас фаришта.

Биламан кўпларнинг келтиридим ғашин,
Бир бор силамадим етимлар бошин.
Ҳалоллаб емадим гоҳида ошим,
Вақт келди дардимни сенга ёришга,
Набирам бобонг ҳам эмас фаришта.

Хасталик енгмоқда сарғайиб рангим,
Оқшомга айланиб бормоқда тонгим.
Тиниб бораётир ҳаёт оҳангим,
Вақт келди дардимни сенга ёришга,
Набирам бобонг ҳам эмас фаришта.

2002 йил

БИР ҚИЗКИ

Бир қизки ўтмайди ҳарир кўйлакда,
Нигоҳлар тўқнашган таниш йўлакда.
У зинди йирокла қалбим қийноқда,
Софинчлар сарғайиб қолди юракда.
У ишқ салтанатин соҳибасидир,
Афсус, у ўзганинг маҳбубасидир.

Кундуз ҳам эртакдек бир кече эди,
Тор йўлак кўзимга кенг кўча эди.
Юрак соғинчларга эҳ, гўша эди,
Мен топиб йўқотган қиз ўша эди.
У ишқ салтанатин соҳибасидир,
Афсус, у ўзганинг маҳбубасидир.

Энди тор йўлакда босган изи бор,
Нигоҳимга синган гулдек юзи бор.
Ундан на хабар бор ва на ўзи бор,
Балки ўғли бордир, балки қизи бор.
У ишқ салтанатин соҳибасидир,
Афсус, у ўзганинг маҳбубасидир.

У ўзга йўлакдан қадам ташлайди,
Ҳижрон хабгоҳида кўзин ёшлайди.
Армону азоблар дилим ғашлайди,
Энди тушларимга кириб яшайди.
У ишқ салтанатин соҳибасидир,
Афсус, у ўзганинг маҳбубасидир.

1998 йил

ХУШ КЕЛСИН БАҲОРИНГ, КҮКЛАМ САЙИЛИ

Фужғондир бошингда минг битта хаёл,
Сабр соясида ўтирган аёл.
Энди бошгинангни кўтар мажнунтол.
Саодатманд йилларнинг эсмоқда ели,
Хуш келсин баҳоринг, кўклам сайили.

Кўзингдан ғамбода ёшлар арисин,
Қувончлар яшариб, ғамлар қарисин.
Қалбингда бахтларнинг кўзи ёрисин,
Сенгадир энг эзгу тилаклар мўли,
Хуш келсин баҳоринг, кўклам сайили.

Эл фидо фарзандлар улғайтгин дуркун,
Ватани севгувчи ҳур фикр, эркин.
Бепарво одам ҳам тушунар бу кун,
Сен инсон оламин сўлмаган гули,
Хуш келсин баҳоринг, кўклам сайили.

Кундузи рўзгор, иш "эрмак"ларинг бор,
Тунлари гоҳ алла, эртакларинг бор.
Гоҳ қайсар, гоҳ инжиқ эркакларинг бор,
Бардошдан олинган аёлнинг гили,
Хуш келсин баҳоринг, кўклам сайили.

Шодоним, шаддодим, сен күзи мунглим,
Момомсан, онамсан, опам, ёр, синглим.
Бахтлиман шеър билан күтарсам күнглинг,
Тугамас шаънинга Ўктамнинг шеъри,
Хуш келсин баҳоринг, кўклам сайили.

АЙТ, СЕНИНГ ҚАЛБИНГНИ НЕЛАР ТИФЛАГАЙ

Минг битта сулувга сени тенг кўрдим,
Меҳру муруватга бағринг кенг кўрдим.
Лек шаҳло кўзингда ногоҳ мунг кўрдим,
Айт, сенинг қалбингни нелар тифлагай,
Айтмасанг менинг ҳам дилим йиғлагай.

Ҳусну малоҳатда инжусан, дурсан,
Кимгадир ҳали сен бўлар гуурсан.
Сен гўзал Фазалсан, шеърсан, шуурсан,
Айт, сенинг қалбингни нелар тифлагай,
Айтмасанг менинг ҳам дилим йиғлагай.

Ишқли юрагингда наҳотки армон,
Наҳотки қалбингда ҳижронлар хоқон.
Ойдин орзуинингта ким бўлди қалқон,
Айт, сенинг қалбингни нелар тифлагай,
Айтмасанг менинг ҳам дилим йиғлагай.

Тушкунлик кўйида сарғайма синглим,
қамлар кўчасидан чиқ кўзи мунглим.
Қовоғингга қараб чўқмоқда кўнглим,
Айт, сенинг қалбингни нелар тифлагай,
Айтмасанг менинг ҳам дилим йиғлагай.

Тонгги насим каби ўтиб кетар ғам,
Дилингдан қувфинди бўлсин ғам, алам.
Ўзингдек гўзалдир, қара, бу олам,
Сен ҳақда ҳали кўп шеър ёзар Ўқтам.
Айт, сенинг қалбингни нелар тифлагай,
Айтмасанг менинг ҳам дилим йиғлагай.

2002 йил

ЙЎҚ, ШУНДАЙ ЮРМАСМАН

Йўқ, шундай юрмасман ғариб, қимтиниб,
Бир куни кўксимга тегарда шамол.
Мен ғамни, ғам мени қўйса унутиб,
Қувончлар сўроқлаб келар эҳтимол.

Эҳтимол бир куни яратган эгам,
Юборар кулбамга баҳтнинг тафтини.
Шунда бошқалардай яшайман беғам,
Армонлар елкамдан олар кафтини.

Йифлаб юбораман, шунда бемалол,
Севинч ёшларидан намланар кўзим.
Қалбимни тарқ этар минг телба хаёл,
Шунда емагайман ўзимни ўзим.

Ўша чоғ кўзимга сингади ҳайрат,
Ажиб ҳаёжонни ҳис этар таним.
Аммо бир илинжим, кўрмасин минбайд,
Мен кўрган ғамларни на дўст, на ғаним.

2000 йил

СУЛУВ ҚИЗ

Лаб тегмаган лабингга,
Қизғалдоқ ранг согланми.
Қордан-да оқ юзингни,
Сутга чайиб олганми.

Нозик белинг даштида,
Сочинг сочми, майсами.
Кўзинг чарос, кипригинг,
Қалбга санчар найзами.

Кулсанг кундан гўзалсан,
Ярашмас ғам, кек сенга.
Қушлар қўниб ўтсам дер,
Қўш олмали кўксингга.

Юзингдаги кулгичинг,
Софинчларга сой бўлгай.
Ёйсанг узун сочингни,
Иккимизга жой бўлгай.

Сенда қомат, сенда қад,
Гўзал қош, кўз, ёноқ, лаб.
Нигоҳингни нигоҳим,
Олсам дейди никоҳлаб.

Сулувлардан сулув қиз,
Битдим сенга сатримни.
Кел бағримга сингиб кет,
Сочиб ифор, атрингни.

1998 йил

ОШИҚ ЭКАН

Бу қизнинг бор ўзин ифори,
Зинҳор хушбўй атир сепмаган.
Ҳаёси бор, лек йўқ ғубори,
Онаси ҳам ҳали ўпмаган.

Киприклари қаддин ростласа,
Ўхшар гўё лак-лак черикка.
Бир жилмайиб нигоҳ ташласа,
Жон бағишлар ҳатто ўликка.

Қора сочи түннинг ўзидир,
Ҳар толаси найга ўхшайди.
Ой қизими, кимнинг қизидир,
Ёнаси ойга ўхшайми.

Қолганида бир ўз ҳоли,
Хаёллари юлдузли кўқда.
Юзидаги тариқдай холи,
Бахтлисан деб қўйилган нуқта.

Момолари илҳом бергандир,
Балки Машраб балки Хайёмга.
Шу қиз чойга лабин теккисса,
Чой айланиб қолар қиёмга.

Икки юзин икки кулгучи,
Софингчларга сойлар бўлади.
Бу қиз қўлин сўраб келгувчи,
Наҳот, фақат бойлар бўлади?!

Йўқ-йўқ, шу қиз мени йўқлабди.
Севиндим, мен, сифмай теримга.
Ошиқ экан, ҳа, ўзи айтди,
Менга эмас фақат шеъримга.

1998 йил

СОЧИНГИЗНИ КЕСИБСИЗ-АЙ

Омон бўлсин, жон қизлар-ай, бошларингиз,
Ўпкаласам келмасин ҳеч ғашларингиз.
Елкангизга ўгаймиди соchlарингиз,
Сочингизни кесибсизай, сочингизни.

Сочи учун қизли уйда саришта бор,
Сочи учун қизлар ҳатто Парижда бор.
Дейдиларки соч учида фаришта бор,
Сочингизни кесибсиз-ай, сочингизни.

Кўрсак сочи узун қизу жувонларни,
Кўргандаймиз Нодираю Нурхонларни.
Сочларингиз соғинмасму товоонларни,
Сочингизни кесибсиз-ай, сочингизни.

Таъна-дашном сочилди деб ўйламангиз,
Шоир, жаги очилди деб ўйламангиз.
Сочимизга осилди деб ўйламангиз,
Сочингизни кесибсиз-ай, сочингизни.

1998 йил

КАСАЛЛИК ЕНГАНДА

Озғинлигин кўриб ўйлайман мубҳам,
Яхши сб-ичишга пули йўқдир-да.
Пули бор соғликдан нолийди укам,
Касаллик енгганда чопар дўхтирга.

Эртадан кечгача билмайди тиним,
Уйданмас даладан топади қўним.
Соғлигин ўйламас менинг шу иним,
Касаллик енгганда чопар дўхтирга.

Ўзинмас ўзгани ўйлайди кўпроқ,
Унинг-чун барча бир баробар ўртоқ.
Меникидан-да кўп сочидаги оқ,
Касаллик енгганда чопар дўхтирга.

Бировнинг дардини дардим деб ўйлар,
Барчани ўзидаёт мардум деб ўйлар.
Эзгулик қалбдаги қарзим деб ўйлар,
Касаллик енгганда чопар дўхтирга.

Иситмаси қирқу ўйлайди бот-бот,
Ишим қолиб кетди, ётибман наҳот.
Дейди-ю туришга йўқ унда ҳолат,
Касаллик енгганда чопар дўхтирга.

Баъзида жонимиз авайланмайди,
Танимиз гоҳ яйраб ҳаволанмайди.
Ўзбек ўн йилда бир даволанмайди,
Касаллик енгандан чопар дўхтирга.

2002 йил

ҚИЗИМНИНГ ШЕЪРИ

Айвонда пайдо бўлди,
Тунда мушук боласи.
Роса миёвлади у,
Бордек гўё ноласи.
Мен-чи дедим, дадажон,
Сизни қандай "эритсам".
Хўп, десангиз мушукни,
Уйимиизга киритсам.
Дадам деди: хўп, кирит,
Кимдир олиб кетмасин.
Мушук билан бўлиб лек,

Дарсинг қолиб кетмасин.
Онам деди: керакмас,
Мушукмиди эрмагинг.
Тимдалайди юзингни,
Қара узун тирноғи.
Йўқ, барибир онажон,

Битта гапда қоламан.
Узун бўлса тирноғи,
Қайчи билан оламан.

2000 йил

СОГИНДИМ

Ҳадеб қизим тушмагур - қор ҳақида ёзинг дер,
Қор ҳақида ёзмабман ўйлаб кўрсам бирор шеър.
Қор тугул ёмғирга ҳам ташна ахир она ер,
Нима қиласай ёғмаса, мен ҳам қорни соғиндим.

Қуриқ келди бу қиши ҳам бекор қолдитарновлар,
Энди умид баҳордан, кўқдан келсин сийловлар.
Яшиллансан дала-дашт, қир-адирлар яйловлар.
Майсаларнинг онаси гулбаҳорни соғиндим.

Ўзга юртда ярашмади зар тўним ҳам бўйимга,
Бўлди, кетдим шошаялман Ватанимга, уйимга.
Софинчларим соя солди бирдан рангу-рўйимга,
Ватанимни, қариндош, эл, дўсти-ёрни соғиндим.

Болалигим осмонида айланганми қушимга,
Қора қош-кўз, жамалак соч бир қиз кирад тушимга.
Ўшамикан мурғак севгим, келар бот-бот эсимга,
Ўша қизни, болаликни, кенг анҳорни соғиндим.

Мен ҳам кутиб яшаялман қордан-да оқ бир тонгни,
Улоқтириб узоққа ғам отлиғ бир ҳарсангни.
Кечаке чузилди тополмадим бир рангни,
Илҳомимни құзғаган тонг-сағарни соғиндим.

Нима ёзсанг ёзавер деб, онам энди ҳеч ёнмас,
Лекин мени қишлоғимдан бошқа жойда танимас.
Бир күн келиб шоир бўлай ҳозирчамас, ҳалимас,
Мени машҳур қиласиган кенг шаҳарни соғиндим.

Қоғозларга тўкилмоқда қувонч, дарду аламим,
Мени ҳеч ким ажратолмас, сендан назмий оламим.
Бўшатмасман тутиб олдим тизгинингни қаламим,
Юрагимдан туғилажак шеър, ашъорни соғиндим.

2000 йил

ДЎСТИМ МЕНИ АЛДАГАН КУНИ

Юрагимга сифмайди қил ҳам,
Тикан бўлиб туюлар гул ҳам.
Ишончимга берилар барҳам,
Дўстим мени алдаган куни.

Гоҳ ичаман, гоҳо чекаман,
Кўзларимга ҳайрат экаман.
Ғамгин бўлиб бошим згаман,
Дўстим мени алдаган куни.

Күпаяди сочда оқ толам,
Қылаверар негадир алам.
Оқ қоғозга югурар қалам,
Дүстим мени алдаган куни.

Излайману тополмам дилсүз,
Қолғандайман түйгүсиз, ҳиссиз.
Майли үтәй дунёдан дүстсиз,
Дүстим мени алдаган куни.

2002 йил

БИР КУНИ ТУГАЙДИ ҒАМЛАР ЭРТАГИ

Бир куни тугайди ғамлар зртаги,
Армонлар пойимга чўқадилар тиз.
Қалбимда кўкарап қувонч куртаги.
Бахтим ўзлигини қиласди кўз-кўз.

Бир куни оловдай ёниб яшарман,
Дилгир хотиротни олмасдан эсга.
Эзгулик йўлидан қадам ташларман,
Суяниб энг тоза туйфуга, ҳисга.

Фанимим дўстимга айланар бир кун,
Токи айланмасдан дўстим фанимга.

Орзулар дилимда ўсади дуркун,
Мұҳаббат югурап илиқ қонимда.

Бир куни гуноңдан фориғ бўларман,
Кўзимга сингади савоб дунёси.
Мабодо ўлсам гар ғолиб ўларман,
Ўлмасам онамнинг асрар дуоси.

2000 йил

* * *

Пайғамбар уммати,
Биз мусулмонмиз.
Ва лекин гоҳ доно,
Гоҳо нодонмиз.

Бу ёруғ дунёга,
Эканмиз қўноқ.
Не учун баъзида,
Қиласмиш гуноҳ.

Келдигу кетгунча,
Иzlайлик жавоб.
Нимадир гуноҳу,
Нимадир савоб.

Ҳали ҳам бор афсус,
Қабоҳат қаҳр.
Нечун йўқолмоқда,
Саховат, меҳр.

Виждонлар сотилар,
Арzonдир нархи.
Қолмади ҳалолу,
Харомнинг фарқи.

Қадрингдан агарда,
Пул турса устун.
Алдайди дўстлар ҳам,
Энг яқин дўстин.

Бу қайси қавмга,
Элга ярашар.
Фарзанд ота билан,
Бойлик талашар.

Гоҳо она билан
Қиз келишмайди.
Оға ини билан
Юз кўришмайди.

Барига пул сабаб,
Мол дунё сабаб,
Бойлик деб баъзида
Бағримиз кабоб.

Кимнидир гоҳ отиб,
Кимнидир сотиб.
Нафснинг ботқоғига
Боряпмиз ботиб.

Хақ деса барчамиз
Сукутга толган.
Ёлғончи дунё деб
Яшаймиз ёлғон.

Ёмоилик тугамас,
Замин устида.
Яхшилар ётибди,
Ернинг остида.

Адолат тарафин
Олмаймиз минъбад.
Оғизни тўлдириб
Қиласиз фийбат.

Нега тугамайди,
Гина фисқ-фасод.
Нега тарқ этмайди
Қалбларни ҳасад.

Мўлтираб тўкканда,
Кўзининг ёшин.
Бир бор силадикми
Етимлар бошин.

Ҳол аҳвол сўрдикми,
Фариб ночордан.
Ажал домидаги
Ҳолсиз bemордан.

**О, инсон боласи,
Хазрати инсон.
Яшашга бир марта
Берилар имкон.**

**Фафлат уйқусидан
Турайлик энди.
Кимгадир яхшилик
Қилайлик энди.**

**Биз ахир бир миллат,
Битта диндамиз.
Барчамиз Аллоҳга,
Бирдай бандамиз.**

**Бу битик кимгадир
Ботмасин оғир.
Қоғозга түкилди,
Шеър бўлиб охир.**

**Йигласанг йигларман,
Кулсанг куларман.
Балки мен тўпори,
Шоир бўларман.**

**Ёзмасам бўлмади,
Туролмадим жим.
Эй, элим дардингдан,
Ёздим бир чимдим.**

2002 йил.

ДАРВОЗАНГНИНГ ОРТИ ЮРТ

Бүш келмагин, бўлма мўрт,
Тўп ўтказма, тўп кирит.
Дарвозангнинг орти юрт,
Олқищдан гуллаб ясаб,
Тутқазай сенга "Насаф".

Мухлисларинг сони кўп,
Дилда ҳаяжони кўп,
Ўйна юртнинг шаъни деб,
Олқищдан гуллаб ясаб,
Тутқазай сенга "Насаф".

Кутар сендан ғалаба,
Ишчи, ҳоким, талаба.
Мағлубликка йўлама,
Олқищдан гуллаб ясаб,
Тутқазай сенга "Насаф".

Кезиб чиқиб дунёни,
Ҳеч қурса Осиёни.
Танит Қашқадарёни,
Олқищдан гуллаб ясаб,
Тутқазай сенга "Насаф".

Севинч улаш лабларга,
Миллионлаб қалбларга.
Ишондик сиз алларга,
Олқищдан гуллаб ясаб,
Тутқазай сенга "Насаф".

Бошимиз күкда мудом,
Зафар-ла юрсанг ҳар дам.
Мадҳингдан толмас Ыктам,
Ғалабадан гул ясаб,
Тутқазгин бизга "Насаф!".

* * *

Мүъжаз безатилган арчага боқиб,
Бугун юрагимни бироз йифлатдим.
Умр ҳам дарёдай бормоқда оқиб,
Умридан бир йилни яна кузатдим.
Эски йил кетяпсан, эртаксан энди,
Тарих оламига эрмаксан энди.

Розимиз, бизнинг-ку кўнглимиз тўлди,
Лек кимнинг очилмай гуллари сўлди.
Нималар бўлмади кўҳна дунёда,
Яхими, ёмонми айтмайман, бўлди.
Эски йил кетяпсан, эртаксан энди,
Тарих оламига эрмаксан энди.

Майли бир ёшгамас ўн ёшга қарит,
Лек дили ўксиклар йўлини ёрит.
Янги йил тилагим энди сен ўзинг,
Дунё кўзидағи ёшларни арит.
Эски йил кетяпсан, эртаксан энди,
Тарих оламига эрмаксан энди.

Кетяпсан, кетишинг яхшиликка йўй,
Эски йил йиглама, йигламагин қўй.
Йилимдан бир йилни тўёна қилдим,
Йилнинг келиши тўй, кетиши ҳам тўй.
Эски йил кетяпсан, эртаксан энди,
Тарих оламига эрмаксан энди.

ТИЛАГИМ

Кўнглимдан ўтказдим, оппоқ қор ёғса,
Оқликка, покликка бурканса олам.
Севинчлар ҳар қалбнинг эшигин қоқса,
Диллардан қувғинди бўлса ғам-алам.

Кўнглимдан ўтказдим, оппоқ қор ёғса,
Шу оппоқ қорларда боладай чопсам.
Кўзимдан соғинчнинг ашклари оқса,
Болалик, мен сени қайтадан топсам.

Күнглимдан ўтказдим, оппоқ қор ёғса,
Қарғалар айланиб қолса оққушга.
Мұхаббат қүёши бошларда балқса,
Севгилар айланса илохий ишқа.

Күнглимдан ўтказдим, оппоқ қор ёғса,
Гуноҳ роҳларига йўламаса дил.
Эзгулик чирогин ҳар инсон ёқса,
Ёвузлик кўзаси синсайди чил-чил.

Күнглимдан ўтказдим, оппоқ қор ёғса,
Лек ҳасад ёғмаса дил осмонидан.
Барча ҳавас билан бир-бирига боқса,
Ўтмаса фисқ-фасод, фийбат ёнидан.

Күнглимдан ўтказдим, оппоқ қор ёғса,
Қалблардан мангуга жой олса меҳр.
Аммо бир илинжим, бир ўтинчим бор,
Қорлар эримаса, эриса қаҳр.

АМИР ТЕМУРНИНГ БУГУНГИ КУНГА НАЗАРИ

Сарбони зўр карвоннинг, ёнидан ёв
утолмас,

Карвон кетди илгари, энди ёғий етолмас.
Бағрикенг бу бағирни ҳеч бир кимса
титолмас,

Ит ҳурса ҳам карвоннинг йўлда экан,
минг шукур,

Салтанатим ишончли қўлда экан, минг
шукур.

Иншоллоҳ, авлодлар англадилар ўзлигин,
Қўлда маҳкам тутганча, Озодликнинг
тизгинин.

Тўрт, беш йилга жо қилди, асрларнинг
тезлигин,

Ит ҳурса ҳам карвоннинг йўлда экан минг
шукур.

Салтанатим ишончли қўлда экан, минг
шукур.

Эл-улуснинг, миллатнинг кўнгил уйлари
обод,

Ал-Бухорий, Фарғоний, Яссавийнинг
руҳи шод.

Фарзандларим юрт кезар, ҳур фикр экан
авлод,
Ит ҳурса ҳам карвонинг йўлда экан,
минг шукур.
Салтанатим ишончли қўлда экан, минг
шукур.

Биламан, сўлди қанча бўй кўрсатмай
чечаклар,
Бу тупроқни топтади неча олғир
олчоқлар.
Ўйламовдим чиқар деб ватанфуруш,
қочоқлар,
Ит ҳурса ҳам карвонинг йўлда экан,
минг шукур.
Салтанатим ишончли қўлда экан, минг
шукур.

Миллатимга, Ватангага, Оллоҳ берар
тўзим бор,
Салтанатда дунёвий адолатли тузум бор.
Тузукларим бор экан, демак менинг ўзим
бор,
Ит ҳурса ҳам карвонинг йўлда экан,
минг шукур.
Салтанатим ишончли қўлда экан, минг
шукур.

* * *

Вужудинг чулғаса агар беморлик,
Тушкунлик қўлидан гар олсанг ёрлиқ.
Ўзингни ўтга ҳам, чўққа ҳам уриб,
Бу олам кўнглингга қилса гар торлик
Учрагин табибу ҳам шифокорга,
Аввал илтижо қил Парвардигорга.

Ҳақсизлик мабодо қаддингни эгса,
Кимлардир дилингга азоблар экса.
Адолат йўқ дема, кўкрак муштлама,
Маломат тошлари сенга ҳам тегса.
Вақт келар, дуч қиласар бир нажоткорга,
Аввал илтижо қил Парвардигорга.

Мискинсан, юришмай турибди ишинг,
Бир бошда минг хаёл, мингта ташвишинг.
Тунлари уйқунгда йўқдир ҳаловат,
Кундузи бошингдан учгудай ҳушинг.
Шунда қул бўлмагин ҳеч оҳу зорга,
Аввал илтижо қил Парвардигорга.

Севги ҳам манглайга битилган қисмат,
Ҳар кимга кўнглингни қўймагин бот-бот.
Севгину севилгил ўшанда шаксиз,
Энг эзгу ишларга элтар муҳаббат.
Магар учрай десанг вафодор ёрга,
Аввал илтижо қил Парвардигорга.

Дўст ҳар хил бўлади, кўрсатар ҳаёт,
Молингга дўст бўлса, бўлгин эҳтиёт.
Қувончу ғамингга бўлмаса шерик,
Ул дўстдан яхшироқ бегона-ю ёт.
Дўст тутинай десанг энг ҳокисорга,
Аввал илтижо қил Парвардигорга.

Бу дунё яралган асли бири кам,
Ўксик кўнгилларга берайлик малҳам.
Элга эл бўлайлик қилиб яхшилик,
Яхшиликдан ўзга не қолар, Ўқтам.
Бахт тила жамики ғариб, ночорга,
Аввал илтижо қил Парвардигорга.

ТАҚДИР

Анови одамнинг ҳолига қара,
Эгнида кийими кетибди тўзиб.
Кимдир бечорани қилди масхара,
Нимадир деганди қўлини чўзиб.

У-ку шу аҳволга тушмаган атай,
Ёки яратгандан олмаган сўраб.
Тақдири шу экан, толеи шундай.
Чордевор сингари боряпти нураб.

Уни ҳам туққандир бир муnis она,
Болам, деб бешигин кимдир тебратган.
Билмам қандай бўлган у пайт замона,
Ўз даврин йўриғи албат, улғайтган.

Улғайган ва сўнгра ҳаёт ташвишин,
Минг бир азобига беролмаган дош.
Қўлдан бой бергандир балки баҳт қушин,
Келган балоларга тополмай бардош.

Энди яшамоққа саботи йўқдек,
Ҳаёт синовига бир-бир ютқазар.
Симёғоч тагида турганича тик,
Тўрт-беш сўм пул тилаб, кунин ўтказар.

О, ҳаёт бунчалар сирлисан, мужмал,
Ким нима бўлишин ўйлаб ҳам кўрмас.
Инсонни тақдир деб аталган шамол
Қай кўйга солади ҳеч кимса билмас.

"Фақат Яратганга барчаси аён",
Ёддан чиқмаса бас бу оддий ҳикмат.
Бир марта меҳмондир дунёга инсон,
Ҳар кимга баҳт бергин, омад бер, қисмат!

АЁЛНИ КАМСИТМАНГ

Аёлни камситманг, оғритманг дилин,
Уни хўрламоқлик фикридан қайтинг.
Сўлдирманг юракда асраган гулин,
Ҳеч қурса, бир марта ширин сўз айтинг.

Аёлни авайланг севиб, ардоқланг,
Тошбағир бўлмангиз бўлманг муз юрак.
Маъюс нигоҳига боқинг, бир қаранг,
У Сизни севади, унга Сиз керак.

У ҳам орзуларин қалбига экиб,
Хаёл осмонида қиласди парвоз.
Агар кечиксангиз йўлга кўз тикиб,
Кутади тунлари чиққанча пешваз.

Нафсу ҳирс қалбларга бўлмасин хоқон,
Шундоқ ҳам ноёб-ку, ахир диёнат.
Мен Сизга тилайман, инсофу имон,
Аёлга заррача қилманг хиёнат.

Аёлга баҳт деган сўлмас гул беринг,
Яшащдан шунда бир маъно бўлади.
Унга бир елкадош каби қўл беринг,
Ахир у Буюк зот – ОНА бўлади.

БИЛМАЙМАН, МЕН ҚАЧОН ОДАМ БҮЛАМАН

Эгик қаддингизга маъюс қарайман,
Олисдан хаёлан аҳвол сўрайман.
Она, кунингизга қачон ярайман,
Шоир болам дейсиз, ёмон боламан,
Билмайман, мен қачон одам бўламан?

Меҳримни шаҳарга бериб қўйибман,
Топган-тутганимни ейман, кийибман.
Ўзимни бунчалар қаттиқ севибман,
Тобокай пул сўраб Сиздан юламан,
Билмайман, мен қачон одам бўламан?

Бахтни қидираман баҳт тополмайман,
Баъзида шиддату шаҳд тополмайман.
Қишлоққа боришга вақт тополмайман,
Ўзимнинг устимдан гоҳо куламан,
Билмайман, мен қачон одам бўламан?

Келтирдим ўзимнинг ўзим ғашимни,
У кун танимайман қариндошимни.
Қизардим ер чизиб эгиб бошимни,
Кимгадир тоғаман, кимга буламан,
Билмайман, мен қачон одам бўламан?

Юрибман шеър ёзиб далли, девона,
Бу азим шаҳарда ёлғиз, ягона.
Мен шундай яралган эканман она,
Агар шеър ёзмасам аниқ ўламан,
Билмайман, мен қачон одам буламан?

ОНАМГА

Армонни бир четга суреб юрибман,
Фамлардан юзимни буриб юрибман.
Онажон, Сиз мендан тортинманг зинҳор,
Мен-ку ўз кунимни кўриб юрибман.

Ўзингиз соғмисиз, ўзингиз омон,
Хаёлан ҳолингиз сўрайман ҳамон -
Қишлоққа боришга вақт тополмайман,
Демак, мен ёмонман, демак, мен ёмон.

Негадир кўнглим ғаш, қийнайди савол,
Оға-иниларим сўрмоқдами ҳол?
Эгик қаддингизни янада эгиб,
Азоб бермаяпми кимдир эҳтимол.

Қиёмат бўлса ҳам қилмас оҳу зор,
Шундай яралганда эҳ, онаизор.
Биламан, онажон айтмасангиз ҳам,
Дардман дилингизга етяпти озор.

Бардош осмонида сўнмаган онам,
Фамлар йўриғига кўнмаган онам.
О, сиз-ку отамнинг ўринин билдирамай,
Бизларни ўстириб, ўнмаган онам.

Софинчни қалбимга қориб келаман,
Дардлашиб дардимни ёриб келаман.
Дунё ташвишлари тегди жонимга,
Бориб дуонгизни олиб келаман.

ШИФОХОНАДА

Биламан, эртага кетасан аниқ,
Ҳувиллаб қолади сўнг шифохона.
Қарайман хонангнинг чироғи ёниқ,
Лекин у зимиston, сен йўқ, ягона.

Ўтаман, қайтаман йўлаклар бўм-бўш,
Сарғая бошлайди софинчим ранги.
Сен йўқсан юракда армон бир ҳовуч,
Сенинг кулгиларинг чиқмас жарангиги.

Кетяпсан ўзимга келмоғим қийин,
Токи бир ҳафтами бир ой, балки йил.
Барибир соғиниб яшайман кейин,
Бардошнинг кўзаси синади чил-чил.

Шунда шеър ёзаман, сенга, сен ҳақда,
Нигоҳи севинчли гоҳо мунглимга.
Қаттиқроқ ўйлайман сени шу чоғда,
Айланиб қоласан фақат синглимга.

2000 йил.

* * *

(Киши құруқ келса, "Энди баҳорини берсін" дейишиади кексаларымыз)

Үзимизча мүъжизалар кутгандаймиз,
Эсон-омон бу қишдан ҳам ўтгандаймиз.
Қўкламойнинг қўлларидан тутгандаймиз,
Баҳорини берсін энди, баҳорини.

Қўниккандик кўқдан келар сийловларга,
Қор-ёмғир йўқ, қолгандаимиз ўйловларга.
Қушлар уя қуриб олди тарновларга,
Баҳорини берсін энди, баҳорини.

Гарчанд қишу лекин эсар ёз ифори,
Аввалгидек қаҳратон қиш қани, қори.
Об-ҳавога нима бўлди, борми кори,
Баҳорини берсін энди, баҳорини.

Табиатга боғлиқ очу түқлигимиз,
Панд беради баъзан эса шўхлигимиз.
Ё, шу боис ўзгардими иқлимимиз,
Баҳорини берсин энди, баҳорини.

Қаранг, деҳқон кўкка кўзин тикаётир,
Орзуларин уруғ каби экаётир.
Кўзларида минг ҳадигу, минг хавотир,
Баҳорини берсин энди, баҳорини.

Қутлуғ келсин остоңангда турган кўклам,
Бағринг очиб баракага буркан ўлкам.
Деҳқон дардин шеърга солди ўғлинг Ўқтам,
Баҳорини берсин энди, баҳорини.

2007 йил.

* * *

Кимлардир илоннинг ёғин ялашар,
Фарзанд ота билан бойлик талашар.
Гуноҳлар устига гуноҳ қалашар,
Баъзилар Худодан қўрқмай қўйдилар.

Ҳар қалбда жам бўлиб саховат, меҳр,
Қачон тугар экан қабоҳат, қаҳр.
Дунёни қутқариб қолайлик ахир,
Баъзилар Худодан қўрқмай қўйдилар.

• • *

Майли бугун тўйиб йиғла,
Ота – уйим, хуш қол, де.
Дастурхоннинг атрофида,
Сенинг ўрнинг буш қолди.
Палоҳмоннинг тошидай,
Отилар қиз қайларга.
Сени бугун узатамиз,
Синалмаган жойларга.
Бир ҳовлида куртак отди,
Ўн етти йил ниҳолинг.
Ўн етти ёз, ўн етти куз,
Ўн етти қиш, баҳоринг.
Ўғилларнинг ўрнини,
Босармиди күёвлар.
Қиз улғайса зғалик,
Қилар экан бирорлар.
Кўникунча юракни,
Софинч тифи тифлайди.
Қаҳри қаттиқ оталар ҳам,
Қиз узатса йиғлади.
Хуш бор дейман кўзимдаги,
Севинч ёшни сидириб.
Болалигинг ўтган уйга,
Келиб тургин қидириб.
Қайнангангу, қайнотангга,

Келин эмас, қиз бўлгин.
Куёв агар узук бўлса,
Сен узукка кўз бўлгин.

* * *

Ҳув, анна, ҳа, ўша менинг қишлоғим,
Болалигим ўтган сирли масканим.
Ҳув, анна, юрганлар бари хешларим,
Тоғамдир, ҳоламдир, дўсти-ёр иним.

Ҳув, тепа қабристон, бор отам қабри,
Момом ҳам шу ерда ётибди мангу.
Қабристон эмас у марҳумлар сабри,
Шу ердан отажак бардошнинг тонги.

Бу эса сувга зор бўлган Қумдарё,
Эслатар энди у қумлар барханин.
Эсим танибманки, ҳамон жим дарё,
Сира кўрмаганман тўлиб оққанин.

Ҳали ҳам бор экан эски тегирмон,
Ишларди бўғдой юз, бўғдой сўзли чол.
Барчага бирдайин эди меҳрибон,
Дунёдан ўтгандир у ҳам эҳтимол.

Атрофин пахсали девор ўраган,
Хув, уйда одам күп куй келаяпти.
Эр-хотин ўн беш йил фарзанд сўраган,
Худо ўғил берган тўй қиласпти.

Бефарқ ўтолмайман бир уй олдидан,
Гоҳ масрур, гоҳ маҳзун сурман хаёл.
Мурғак муҳаббатим тушар ёдимга,
Хув, уйда яшайди энг сулув аёл.

Қишлоғим устидан ўтятман бироқ,
Ечилар афсусу хаёл тугуним.
Бағрингда қолмадим жонажон қишлоқ,
Она ёнингизда ўтмас бугуним.

Қишлоқ ортда қолди йўлдамиз ҳамон,
Йўл олис, кетмапмиз гоҳ мудраб, хориб.
Мен дейман қайтаман бир кун онажон,
Бир олам соғинчни қалбимга қориб.

*BARDOSH
TONGI*

XAYR ENDI

Xayr endi sen menga begona jonio.
Ketyapsan o'zga ishq yo'laklaridan.
Sen bir kun jilmayib boqsang jahonim
Singan ishq ko'zgusin bo'laklaridan.

Balki suratingni chizarman bir kun,
So'ng to'yib yig'larman, bosib labimga.
Mayli yig'lab o'tay, sen esa kulgin,
Sen kulib kirdgansan chunki qalbimga.

Ketyapsan yurakka qoldirib armon,
Qalbimda his-tuyg'u, muhabbat so'ldi.
Endi visol yig'lab, kulmoqda hijron,
G'animlar xohishi ijobat bo'ldi.

Endi ishqimizning mitti qabrimi,
Qalbimdan qazarman va qo'yaman tosh.
Lek qaydan topaman sevgi sabrini,
Sensiz yashamoqqa yetarmi bardosh.

Xayr endi sen menga begona jonio,
Ketyapsan o'zga ishq yo'laklaridan.
Sen bir kun jilmayib boqsang jahonim
Singan ishq ko'zgusin bo'laklaridan.

1996 yil

SOG'INCHLAR SARG'AYAR

**Sog'inchlar sarg'ayar qalbim dashtida,
Botiniy ochunda ming xayol, ming his.
O'tayotgan umrimning qolgan gashtida,
Nahot uchramasa o'sha suluv qiz.**

**Men uni tushimda tushlar ko'raman,
U yig'lar qo'shilib yig'laydi dilim.
Ko'kayim kesilar keyin ko'naman,
Bardoshning bog'ida so'lgandek gulim.**

**Xayolan ovuta boshlayman quchib,
U esa qarg'aydi g'ayur hijronni.
Armonlar yurakka o'tadi ko'chib,
Nahotki ishqnimas asrabmiz jonni.**

**Ishq paydo bo'ldiyu visol bo'lmadi,
Muhabbat yurtidan qaytmadik g'olib.
Baxtning g'animplari oq yo'l bermadi,
Men uni oylarga qochmabman olib.**

**Sog'inchlar sarg'ayar qalbim dashtida,
Botiniy ochunda ming xayol, ming his.
O'tayotgan umrimning qolgan gashtida,
Nahot uchramasa o'sha suluv qiz.**

1996 yil.

ASRAYDI TANGRIM VA DO'STLARNING MEHRI

Ey, Tangrim baxtingdan ularash qalbimga,
Ko'nglimga shoh emas qul qil g'amlarni.
Kulgilar hadya et endi labimga,
Sevinib kutayin men ham tonglarni.

Bu azob, bu anduh urdi badimga,
qujg'ondir telegramda telba xayollar.
Men qachon o'xshayman axir odamga -
Qachon ko'kragimga tegar shamollar?!

Nahot men g'am uchun yetilgan bo'lsam,
Unda nega o'sdim ne uchun undim.
Sog'ligim yo'qotdim, bo'ldim goh mulzam,
Bariga chidadim, bariga ko'ndim.

Ko'ndim g'animplarning g'iybatlariga,
Yo'qotmoqchi bo'ldi tuyg'u hislarim.
Yomon kunlarimda quvvatlaguvchi,
Yaxshiyam bor ekan sodiq do'starim.

Bilaman bir kun baxt kelar birtalay,
Ko'zimga singadi sevinchning sehri.
Meni bukolmagay g'amlar harqalay,
Asraydi Tangrim va do'starim mehri.

2000 yil

AYOLIMGA

Beton uy, to'rt devor go'shamiz deysan,
Birimiz ikkimas, o'shamiz deysan.

Ketaylik qishloqqa ko'chamiz deysan.
Hozircha boshimda g'ujg'on xayolim,
Qishloqqa ketamiz bir kun ayolim.

To'yga yig'inaylik topsak bir tiyin,
Deysan lek shoirlar boyishi qiyin.
Men seni ovutib shu so'zni deyin,
Hozircha boshimda g'ujg'on xayolim,
Biz ham to'y qilamiz bir kun ayolim.

Men ham sog'inaman, aytsam rostimni,
Qishloqda qoldirgan shiddat-shahdimni
Bolaligim o'tgan dala-dashtimni.
Hozircha boshimda g'ujg'on xayolim,
Kezarmiz dashtlarni bir kun ayolim.

Bir kuni qishloqqa borib yashaymiz,
Armonning boshini yorib yashaymiz.
Bizlar ham keksayib, qarib yashaymiz,
Hozircha boshimda g'ujg'on xayolim,
Armonsiz yasharmiz bir kun ayolim.

Qalbimda nazmdan hislat bor zohir,
She'r yozmay qo'yganim o'lganim axir.
Bilaman shoirga yor bo'lmoq og'ir,
Hozircha boshimda g'ujg'on xayolim,
Endi tushunarsan meni ayolim.

1997 yil.

SEN HAQDA SHE'R BITSAM

Sen haqda she'r bitsam azizam tushun,
Maqtasam lab, ko'zi, yonoqlaringni.
Bilmayman, sog'inib qolaman nechun,
Beg'ubor tikilgan nigohlaringni.

Shunda she'r yozaman, senga ataylab,
Aytmoqchi bo'laman yurakdan bir so'z.
Lekin sen o'ylama she'r bilan siylab,
Seni avramoqchi emasman ey, qiz.

Ishqta'lab emasman tingla, bokiram,
Nigohingdan faqat she'rlar izlayman.
Chunki sen bir qizga o'xshaysan, biram,
Men uni eslasam hanuz bo'zlayman.

Sen unga u senga juda o'xshaydi,
Ko'zlari, oy yuzi, gulgun yonog'i.
O'sha qiz qalbimda hamon yashaydi,
Hamon yuragimni o'rtar sirog'i.

U endi yiroqda, qalbim qiynoqda,
Lekin xotiramdan o'chmaydi hanuz.
Sog'inchilar sarg'aygan armon yurakda,
Men undan u mendan bexabar, afsus.

Hijronqa qolganda visolning kuni,
Muhabbat gullari so'laveradi.
Faqat bitta yupanch sog'insam uni,
Men seni uchratgim kelaveradi.

Sen haqda she'r bitsam azizam tushun,
Maqtasam lab ko'zi, yonoqlaringni.
Bilmayman sog'inib qolaman nechun,
Beg'ubor tikilgan nigohlaringni.

AYT, NECHUN KELDINGU KETYAPSAN NECHUN

Ayt, nechun keldingu ketyapsan nechun,
Yetkazib yetkazmay vasling arshiga.
Yo senga bog'lanib qolganim uchun,
Tashlab ketyapsanmi meni Qarshiga.

Sensiz yuragimda sarg'ayar sog'inch,
Lablarim qumsaydi dudoqlaringni.
Nahotki topganim armonu, o'kinch,
Qanday unutaman nigohlaringni.

Ketyapsan qalbimga g'amlar yig'ildi,
Mayli ket, o'zimdan o'zingni sovut.
Mayli xayolingdan qilgin quvg'indi,
Mayli unutaqol, meni bemavrid.

Lekin men unutmam ishq xotiridan,
O'chmaysan umidim chirog'i yoniq.
Bir kuni qaytarsan hijron yurtidan,
Bir kuni qaytarman qalbingga aniq.

Ayt, nechun keldingu ketyapsan nechun,
Yetkazib yetkazmay vasling arshiga.
Yo senga bog'lanib qolganim uchun,
Tashlab ketyapsanmi meni Qarshiga.

1993 yil

CHIN DO'ST

(do'stim Asadga)

Ikkala do'st hamdardu hamdam,
Yashirmaydi bo'lsa sirini.
Yaxshi kunda, yomon kunda ham,
Yo'qlab turar biri, birini.

Chin do'stlikka yetadi-da darz,
Gar o'rtaga aralashsa pul.
Bir-biridan so'ramaydi qarz,
Lekin so'raro'zaro ko'ngil.

O'rtasida mehrdan ko'priki,
Ishonch degan yuksak qoya bor.
Bir-biriga gapirmas o'trik,
Do'stlikka xos sodiq g'oya bor.

Bu do'stlikka aytaman tahsin,
Hislarimni qog'ozga qorib.
Ha, dunyoni go'zallik bilan
Chin do'stlik ham qolar qutqarib.

2006 yil

BU QIZ BUNCHA SULUV-A

Bu qiz buncha suluv-a,
Ohu ko'z, ol yonoqli.
quncha lab, oq bilagu,
Nozikkina barmoqli.

Yuragidan so'zlasa,
Dil so'zi dil ko'prigi.
Oq yuziga soyabon,
Uzun, uzun kiprigi.

Qulog'idan o'padi,
Oy baldoqli ziragi.
Tunda yursa tun yorug',
Shu'lanning yo'q keragi.

**Bag'riga bir bossa deb,
Qizg'aldoqlar mo'lтирар.
Sochlarning uchida,
Farishtalar o'lтирар.**

**Sochining har tolasi,
Qalb soziga tor bo'lgay.
Bu qizning dil shiori
Iffat, ibo, or bo'lgay.**

**Qora qoshin chimirsa,
Misli qaldirg'och qanot.
Shu qiz g'am cheksa agar,
Bo'ladi-yov qiyomat.**

**Soy bo'yida yuzini,
Yuvsa yomg'ir iymanib,
Husnini bir ko'rmoqqa,
Kelar osmon enkayib.**

**O'tsa bog'lar oralab,
Sochib ifor, atrini.
Gullar shaksiz yo'qotar,
O'zlarining qadrini.**

**Nogoh tushsa nigohlar,
Shu qiz paru paykarga.
Hayratlanib yigitlar,
Aylanadi «haykal»ga.**

Ta'rif etdim go'zalni,
Yurak qurg'ir etdi «jiz».
Nimagadir tushimga,
Kiraverar o'sha qiz.

1998 yil

SENSIZ YURAGIMGA SIG'MADI BAHOR

Yana yashillandi tevarak atrof,
Lek mening ko'nglimning kulbasi xarob.
Hijronning qo'lidan ichaman sharob,
Qalbim osmonidan yog'averar qor,
Sensiz yuragimga sig'madi bahor.

Taqdirga tan berdi talpingan dillar,
O'rtada ayriliq endi ming yillar.
Lek o'zga qo'llarga tutmadim gullar,
Qalbim osmonidan yog'averar qor,
Sensiz yuragimga sig'madi bahor.

Vaslingsiz ulg'aydim, unib yashadim,
Goh yondim goh kuydim, so'nib yashadim.
Bariga chidadim, ko'nib yashadim,
Qalbim osmonidan yog'averar qor,
Sensiz yuragimga sig'madi bahor.

Bahor ham o'tyapti, so'ldi boychechak,
Gullar asrolmadim senga bir quchoq.
Yoqsam armonlarim bo'lar bir o'choq,
Qalbim osmonidan yog'averar qor,
Sensiz yuragimga sig'madi bahor.

Oy yuzli farishtam, ko'zları munglim,
Yuragim dashtida ulg'aygan gulim.
Oymiding, kunmiding yetmadi qo'llim,
Qalbim osmonidan yog'averar qor,
Sensiz yuragimga sig'madi bahor.

1997 yil

ESLAMA

Bilaman, bir kuni eslaysan mahzun,
Titgancha xotirot sandiqlarini.
Suratimga boqib yig'laysan beun,
Qarg'aysan dunyoning anduhlarini.

So'ng ko'ngling cho'kadi bir lahza, bir on,
Va birdan tugaydi g'amilar ertagi.
Shunda unutishga topasan imkon,
Yana yashillanar qalbing kurtagi.

Hali oldindadir sen kutgan hayot,
O'ylama na ranju, na-da ginam bor.
O'rtamizda faqat sag'ir muhabbat,
Demak, eslamoqqa arzir nimam bor.

Nimam bor? Bori ham xira xotira,
Va majruh yurakda ishq bor bir hovuch.
Bir ishqki, o'zingdek edi bokira,
Afsus, asrolmadik, asrolmadik hech.

Sen uni, menga-ku unutmoq og'ir,
Toki yashayapman, toki tirikman.
Lek sening borliging o'zi baxt axir,
Sen topgan baxtlarga pinhon sherikman.

Ishqning vodiysida kezsam-da sarson,
Muhabbat kitobin bo'zlab yoparman.
Yo'q endi men seni izlamam giryon,
Izlasam qalbimdan izlab toparman.

1999 yil

... NING SHE'RI

Urindim, hayotim tushmadi izga,
Tonggi nasim kabi yelib, yityapman.
Yetib borolmadim yorqinroq ro'zga,
Afsuski mangulik sari ketyapman.

Quvonchimdan ko'ra g'amim ko'p bo'ldi,
Nechun baxt tansiq-a, alam ziyoda.
Quridim, qaqshadim mana cho'p bo'ldim,
Qiynalib yashabman, bilsam dunyoda.

Aslida dunyoga kelgan kunimoq,
Oqqushga aylanib, ketmabman uchib.
Ko'kda burgutlarga yem bo'lsam axir,
Buncha azoblarni yotmasdim quchib.

Men endi dunyodan ozod etildim,
Yo'q menga achinmang, achinmang sira.
Bu dunyo g'amitingdan endi qutildim,
Mendan qolayapti xira xotira.

2002 yil

OG'IR KUN

Bugun yuragimga sig'madi qil ham,
Nimadandir bugun to'ljadi ko'nglim.
So'lgandek qalbimda muattar gul ham,
Negadir ishg'a hech bormadi qo'lim.

Hech kim bermagandi dilimga ozor,
Men ham ranjitmadim kimnidir axir.
Nega parishonman, ko'nglim uyi tor,
Nega bugunimning o'tmog'i og'ir.

Harnechuk g'amlardan edim-ku yiroq,
Yurakda yo'q edi zarra tugunim.
Shukurki, shodligim, baxtim bor biroq,
Nega pand bermoqda unda bugunim.

Deymanu va birdan topaman sabot,
Orzular armonga bo'lar kushanda.
E, nega bo'ljadi desam kayfiyat,
Axir dushanba-ku bugun dushanba.

2002 yil

* * *

Bir do'stim bilgandek soqiylik sirin,
O'qidi Xayyomning uch-to'rtta she'rin.
Menga ham may suzdi, ichmayman desam,
U dedi: bo'lmasam qilib ber «shirin».
Yonimda o'tirgan o'g'lim hayron, lol,
Bir zum xayolotga, o'ylarga toldi.
Men shirin qilaman dedi-yu darhol.
Bir qoshiq shakarni qadahga soldi.

2002 yil

* * *

Huv juldur kiyimli odamga qarab,
Kimdир ijirg'andi, kimlardir kului.
Bir inson o'rniда ko'rmadi yo rab,
So'zlamоq bo'lgандi so'zini bo'ldi.

Munosib emas deb, bundaylar to'rga,
Poygakdan bir joyni zo'r-ba'zur berdi.
So'ng mazax qildilar, urdilar yerga,
U yig'lab o'zini ko'chaga urdi.

Insonlar qalbgamas kiyimga qarab,
Muomila qilmoqni qaydan yuqtirdi.
Kiyimlari bashang, qalblari xarob,
Kimsalar bir mo'min ko'nglin cho'ktirdi.

1997 yil

BOLALIGIM

Cho'pni ot deb, minib chopgan dalalarim,
Boshim silab, ertak aytgan momolarim.
Murg'ak tanim siypalagan sabolarim,
Qaytmas bo'lib qayga ketding bolaligim?

Podalarning ortlarida izlarim bor,
O'yinqaroq eng beg'ubor kezlarim bor.
Biyron tilli, jovidiragan ko'zlarim bor,
Qaytmas bo'lib qayga ketding bolaligim?

Qo'rqqanimda shiringina titrog'larim,
Tizzamgacha kelgan iliq tuproqlarim.
Sochimdan ham ko'p edi-ku o'rtoqlarim,
Qaytmas bo'lib qayga ketding bolaligim?

Dala-dashtga, o'tloqlarga o'rtoq eding,
Kattalarning ko'nglidagi kurtak eding.
Bolaligim, sen tugamas ertak eding.
Qaytmas bo'lib qayga ketding bolaligim?

Sen nazdimda bir yulduzsan chaqnayvergin,
Xayolatim eshididan hatlayvergin.
Hech bo'lmasa xotiramga qatnayvergin,
Qaytmas bo'lib qayga ketding bolaligim?

2002 yil

YOLG'ONCHI YOR

Quyosh qildi otalik,
Oy kel debon yo'qladi.
To'da-to'da yulduzlar
Yonginamda uxladi.

Bulutlarning bag'rida,
Yotib oldim dustaman.
Toki kuzak kelguncha
Shu joylarda o'saman.

Yolg'onchi yor yerdadir,
Men bulutlar qatida.
Menga bergen va'dasi,
Qoldi yozgan xatida.

Yerda yurib xor bo'ldim,
Tortdim hijron jabrini,
Osmonlarda sinayman,
Muhabbatim sabrini.

Oy, yulduzlar sirdoshim
Men ularga og'aman.
Yolg'onchi yor to'yiga,
Yomg'ir bo'lib yog'aman.

2002 yil

G'ALAMIS

O'z qalbini o'zi titgan
qalamis yo'q undan o'tgan.
Uni hasad ado etgan,
Ko'ngil uyi doim tuman,
Uni bir kun yeidi gumon.

Shubha uning do'sti yori,
Yolg'on, yashiq so'zin bari.
Ham lafzi yo'q, ham yo'q ori,
Ko'ngil uyi doim tuman,
Uni bir kun yeidi gumon.

Odam bo'lsa u ham koshki,
Qalbida yo'q mehr ishqı.
Har narsaga kelar rashki,
Ko'ngil uyi doim tuman,
Uni bir kun yeidi gumon.

Kunduzni ham tun deb o'ylar,
Hazilni ham chin deb o'ylar.
Soyasini jin deb o'ylar.
Ko'ngil uyi doim tuman,
Uni bir kun yeidi gumon.

Yurar mudom izzattalab,
Bilmas nima gunoh, savob.
O'z yog'iga o'zi kabob,
Ko'ngil uyi doim tuman,
Uni bir kun yeysi gumon.

So'zlayolmas dilin ochib,
Gunohlari ketgan oshib.
Bundaylardan qutul qochib,
Ko'ngil uyi doim tuman,
Uni bir kun yeysi gumon.

1997 yil

AYON BO'LAR OXIRATDA

Bu dunyoda yaxshi kimu yomon kimdir,
Desam, barcha yelka qisar, barcha jimdir.
Hamma o'zin farishta der, boshim xumdir,
Ketayapmiz manzil sari yag'ir otda,
Oxiratda ayon bo'lar, oxiratda.

Gunohkor Kim, gunohsiz kim bilib bo'lmas,
G'am boshinga soya solsa kulib bo'lmas.
Agar ajal yo'qlamasa o'lib bo'lmas,
Ketayapmiz manzil sari yag'ir otda,
Oxiratda ayon bo'lar, oxiratda.

Ota-bola o'rtasida murosa yo'q,
Mol dunyo deb, bir-biriga yo'llasa o'q.
O, Allohim o'ylayversam xulosa yo'q,
Ketayapmiz manzil sari yag'ir otda,
Oxiratda ayon bo'lar, oxiratda.

Odamzotni tortib biror nafs o'pqoni,
Nohaqnimas haqni tutar davr qopqoni.
Goh razolat, goh jaholat bor topgani,
Ketayapmiz manzil sari yag'ir otda,
Oxiratda ayon bo'lar, oxiratda.

Tavba, deyman yoqam ushlab hayronaman,
Bu ketishda ko'ngil uyi vayronaman.
Darding yozdim bir shoiru devonaman,
Ketayapmiz manzil sari yag'ir otda,
Oxiratda ayon bo'lar, oxiratda.

2002 yil

DEHQON ELIM

Yuksaltirib osmon qadar xirmonini,
Ayamasdan qishin-yozin o'z jonini,
Topganda ham halol topar tuz, nonini,
Orzularin urug' kabi ekkan elim,
Yuragi oq paxtasiday dehqon elim.

Omad yeli esar to'rtta tomonidan,
O't chaqnaydi dala kezsa tobonidan.
Asrasinlar illo ko'zning yomonidan,
Orzularin urug' kabi ekkan elim,
Yuragi oq paxtasiday dehqon elim.

Saxovatning sahnasida o'mi bordir,
Biri fermer biri esa tadbirkordir.
Ishning ko'zin bilganlarga Xudo yordir,
Orzularin urug' kabi ekkan elim,
Yuragi oq paxtasiday dehqon elim.

Dehqon otlig' ilm to'la matabingdan,
Bahra olar dillar mehr oftobingdan.
Aylanayin ter anqigan yaktagingdan,
Orzularin urug' kabi ekkan elim,
Yuragi oq paxtasiday dehqon elim.

Shahardaman, «hormang», deb xol so'rolmadim,
Sirim ochib yo sendan bir sir ololmadim.
Lek sha'ninga she'r yozmasdan tuolmadim,
Orzularin urug' kabi ekkan elim,
Yuragi oq paxtasiday dehqon elim.

2006 yil

MEZBON

Barchasi jim edi, barchasi horg'in,
Negadir hech kimga yoqmas edi gap.
Davraka nimadir yetishmas tag'in,
Nimadir kam edi bo'lmasdi payqab.

Mezbonning yuzida xavotir, hadik,
Davraka qarardi zimdan alanglab.
Bu jimlik sirini tushunmadi lek,
Va biror sababni olmadi anglab.

Noz-ne'matga to'la edi dasturxon,
Rosa bezatgandi topib imkonni.
Nega yemayapti birorta mehmon,
Shu savol qiyopardi sho'rlikni mezbonni.

Shunda andishani bir chetga surib,
Mehmonlardan biri boshladi so'zni.
Shu paytgacha qancha davrani ko'rib,
Bu qadar noqulay sezmovdim o'zni.

So'ng mezbonga dedi, chidolmay oxir,
Nimaga anqayib turibsan yo rab.
Bilsang gapni-gapga qo'shish-chun axir,
Davraka yetishmay turibdi sharob.

Mehmonlar ko'zları tortdilar ravshan,
Shu dangal odamga «rahmat» dedilar.
Shunda eslariga tushdi dasturxon,
Shundan so'ng taomdan bir-bir yedilar.

Davrada suzila boshlandi sharob,
Eh, mezbon shunga ham rozi edi-da.
Mehmonlar aljirar, mezbon mo'ltirab,
O'tirar, chunki u hoji edi-da.

2006 yil

TANGRINING AYTGANI BO'LADI

Tilingga erk berma, har narsa dema,
Demagin, bu dunyo cho'kayotgan kema.
Kimlar nima desin, desinlar nima,
Tangrining aytgani bo'ladi.

O'zgalar ustidan qahqaha otma,
qaflat uyqusidan uyg'ongin, yotma.
Har joyda bo'limg'ur gaplarni sotma,
Tangrining aytgani bo'ladi.

Katta ketmagine, katta so'zlama,
Nafsning poygasida marra ko'zlama.
Xarom pul ortidan boylik izlama,
Tangrining aytgani bo'ladi.

Kechagi farishta bugun gunohkor,
Bugungi gunohkor erta hokisor.
Hayotda shunaqa sir-sinoat bor,
Tangrining aytgani bo'ladi.

Telbaday tentirab har yona chopma,
Mayli dunyo yig'ma obro' ham topma.
Va lekin ezgulik eshigin yopma,
Tangrining aytgani bo'ladi.

2002 yil

IQROR

Uchratdim ba'zida rangi somonni,
Ko'rib ko'rmaslikka oldim yomonni.
Haq deb aytolmadim haq bir tomonni,
Vaqt keldi dardimni senga yorishga,
Nabiram bobong ham emas farishta.

Ishq desa mening ham bor dilda ohim,
Go'zal nigohlarni aldab nigohim.
O'zimga yarasha qilgan gunohim,
Vaqt keldi dardimni senga yorishga,
Nabiram bobong ham emas farishta.

O'ylasam ba'zida yuragim zada,
Shundanmi g'amlarim bo'ldi ziyoda.
Men ham qiynalganman, bolam dunyoda,

Vaqt keldi dardimni senga yorishga,
Nabiram bobong ham emas farishta.

Bilaman ko'plarning keltirdim g'ashin,
Bir bor silamadim yetimlar boshin.
Halollab yemadim gohida oshim,
Vaqt keldi dardimni senga yorishga,
Nabiram bobong ham emas farishta.

Xastalik yengmoqda sarg'ayib rangim,
Oqshomga aylanib bormoqda tongim.
Tinib borayotir hayot ohangim,
Vaqt keldi dardimni senga yorishga,
Nabiram bobong ham emas farishta.

2002 yil

BIR QIZKI

Bir qizki o'tmaydi harir ko'yakda,
Nigohlar to'qnashgan tanish yo'lakda.
U endi yiroqda qalbim qyinoqda,
Sog'inchilar sarg'ayib qoldi yurakda.
U ishq sultanatin sohibasidir,
Afsus, u o'zganing mahbubasidir.

Kunduz ham ertakdek bir kecha edi,
Tor yo'lak ko'zimga keng ko'cha edi.
Yurak sog'inchlarga eh, go'sha edi,
Men topib yo'qotgan qiz o'sha edi.
U ishq sultanatin sohibasidir,
Afsus, u o'zganining mahbubasidir.

Endi tor yo'lakda bosgan izi bor,
Nigohimga singan guldek yuzi bor.
Undan na xabar bor va na o'zi bor,
Balki o'g'li bordir, balki qizi bor.
U ishq sultanatin sohibasidir,
Afsus, u o'zganining mahbubasidir.

U o'zga yo'lakdan qadam tashlaydi,
Hijron xabgohida ko'zin yoshlaydi.
Armonu azoblar dilim g'ashlaydi,
Endi tushlarimga kirib yashaydi.
U ishq sultanatin sohibasidir,
Afsus, u o'zganining mahbubasidir.

1998 yil

XUSH KEL SIN BAHORING, KO'KLAM SAYILI

G'ujg'ondir boshingda ming bitta xayol,
Sabr soyasida o'tirgan ayol.
Endi boshginangni ko'tar majnuntol.
Saodatmand yillarning esmoqda yeli,
Xush kelsin bahoring, ko'klam sayili.

Ko'zingdan g'amboda yoshlar arisin,
Quvonchlar yasharib, g'amilar qarisin.
Qalbingda baxtlarning ko'zi yorisin,
Sengadir eng ezgu tilaklar mo'li,
Xush kelsin bahoring, ko'klam sayili.

Ej fido farzandlar ulg'aytgin durkun,
Vatanni sevguvchi hur fikr, erkin.
Beparvo odam ham tushunar bu kun,
Sen inson olamin so'limgan guli,
Xush kelsin bahoring, ko'klam sayili.

Kunduzi ro'zg'or, ish «ermak»laring bor,
Tunlari goh alla, ertaklaring bor.
Goh qaysar, goh injiq erkaklaring bor,
Bardoshdan olingan ayoilning gili,
Xush kelsin bahoring, ko'klam sayili.

Shodonim, shaddodim, sen ko'zi munglim,
Momomsan, onamsan, opam, yor, singlim.
Baxtliman she'r bilan ko'tarsam ko'ngling,
Tugamas sha'ninga O'ktamning she'ri,
Xush kelsin bahoring, ko'klam sayili.

AYT, SENING QALBINGNI NELAR TIG'LAGAY

Ming bitta suluvga seni teng ko'rdim,
Mehru muruvvatga bag'ring keng ko'rdim.
Lek shahlo ko'zingda nogoh mung ko'rdim,
Ayt, sening qalbingni nelar tig'lagay,
Aytmasang mening ham dilim yig'lagay.

Husnu malohatda injusan, dursan,
Kimgadir hali sen bo'lar g'urursan.
Sen go'zal G'azalsan, she'rsan, shuursan,
Ayt, sening qalbingni nelar tig'lagay,
Aytmasang mening ham dilim yig'lagay.

Ishqli yuragingda nahotki armon,
Nahotki qalbingda hijronlar xoqon.
Oydin orzuyingga kim bo'ldi qalqon,
Ayt, sening qalbingni nelar tig'lagay,
Aytmasang mening ham dilim yig'lagay.

**Tushkunlik ko'yida sarg'ayma singlim,
qamlar ko'chasidan chiq ko'zi munglim.
Qovog'ingga qarab cho'kmoqda ko'nglim,
Ayt, sening qalbingni nelar tig'lagay,
Aytmasang mening ham dilim yig'lagay.**

**Tonggi nasim kabi o'tib ketar g'am,
Dilingdan quvg'indi bo'lzin g'am, alam.
O'zingdek go'zaldir, qara, bu olam,
Sen haqda hali ko'p she'r yozar O'ktam.
Ayt, sening qalbingni nelar tig'lagay,
Aytmasang mening ham dilim yig'lagay.**

2002 yil

YO'Q, SHUNDAY YURMASMAN

**Yo'q, shunday yurmasman g'arib, qimtinib,
Bir kuni ko'ksimga tegarda shamol.
Men g'amni, g'am meni qo'ysa unutib,
Quvonchlar so'roqlab kelar ehtimol.**

**Ehtimol bir kuni yaratgan egam,
Yuborar kulbamga baxtning taftini.
Shunda boshqalarday yashayman beg'am,
Armonlar yelkamdan olar kaftini.**

Yig'lab yuboraman, shunda bemalol,
Sevinch yoshlardan namlanar ko'zim.
Qalbimni tark etar ming telba xayol,
Shunda yemagayman o'zimni o'zim.

O'sha chog' ko'zimga singadi hayrat,
Ajib hayojonni his etar tanim.
Ammo bir ilinjim, ko'rmasin minba'd,
Men ko'rgan g'am�arni na do'st, na g'anim.

2000 yil

CULUV QIZ

Lab tegmagan labingga,
Qizg'aldoq rang solganmi.
Qordan-da oq yuzingni,
Sutga chayib olganmi.

Nozik beling dashtida,
Soching sochmi, maysami.
Ko'zing charos, kipriging,
Qalbga sanchar nayzami.

Kulsang kundan go'zalsan,
Yarashmas g'am, kek senga.
Qushlar qo'nib o'tsam der,
Qo'sh olmali ko'ksingga.

Yuzingdagi kulgiching,
Sog'inchlarga soy bo'lgay.
Yoysang uzun sochingni,
Ikkimizga joy bo'lgay.

Senda qomat, senda qad,
Go'zal qosh, ko'z, yonoq, lab.
Nigohingni nigohim,
Olsam deydi nikohlab.

Suluvlardan suluv qiz,
Bitdim senga satrimni.
Kel bag'rimga singib ket,
Sochib ifor, atringni.

1998 yil

OSHIQ EKAN

Bu qizning bor o'zin ifori,
Zinhor xushbo'y atir sepmagan.
Hayosi bor, lek yo'q g'ubori,
Onasi ham hali o'pmagan.

Kipriklari qaddin rostlasa,
O'xshar go'yo lak-lak cherikka.
Bir jilmayib nigoh tashlasa,
Jon bag'ishlar hatto o'likka.

Qora sochi tunning o'zidir,
Har tolasi nayga o'xshaydi.
Oy qizimi, kimning qizidir,
Yo onasi oyga o'xshaymi.

Qolganida bir o'z holi,
Xayollari yulduzli ko'kda.
Yuzidagi tariqday xoli,
Baxtlisan deb qo'yilgan nuqta.

Momolari ilhom bergandir,
Balki Mashrab balki Xayyomga.
Shu qiz choyga labin tekkizsa,
Choy aylanib qolar qiyomga.

Ikki yuzin ikki kulguchi,
Sog'inchlarga soylar bo'ladi.
Bu qiz qo'lin so'rab kelguvchi,
Nahot, faqat boylar bo'ladi?!

Yo'q-yo'q, shu qiz meni yo'qlabdi.
Sevindim, men, sig'may terimga.
Oshiq ekan, ha, o'zi aytdi,
Menga emas faqat she'rimga.

1998 yil

SOCHINGIZNI KESIBSIZ-AY

Omon bo'lsin, jon qizlar-ay, boshlaringiz,
O'pkalasam kelmasin hech g'ashlaringiz.
Yelkangizga o'gaymidi sochlaringiz,
Sochingizni kesibsizay, sochingizni.

Sochi uchun qizli uyda sarishta bor,
Sochi uchun qizlar hatto Parijda bor.
Deydilarki soch uchida farishta bor,
Sochingizni kesibsiz-ay, sochingizni.

Ko'rsak sochi uzun qizu juvonlarni,
Ko'rgandaymiz Nodirayu Nurxonlarni.
Sochlaringiz sog'inmasmu tovonlarni,
Sochingizni kesibsiz-ay, sochingizni.

Ta'na-dashnom sochildi deb o'ylamangiz,
Shoir, jag'i ochildi deb o'ylamangiz.
Sochimizga osildi deb o'ylamangiz,
Sochingizni kesibsiz-ay, sochingizni.

1998 yil

KASALLIK YENGGANDA

Ozg'inligin ko'rib o'ylayman mubham,
Yaxshi yeb-ichishga puli yo'qdir-da.
Puli bor sog'likdan noliydi ukam,
Kasallik yengganda chopar do'xtirga.

Ertadan kechgacha bilmaydi tinim,
Uydanmas daladan topadi qo'nim.
Sog'ligin o'ylamas mening shu inim,
Kasallik yengganda chopar do'xtirga.

O'zinmas o'zgani o'ylaydi ko'proq,
Uning-chun barcha bir barobar o'rtoq.
Menikidan-da ko'p sochidagi oq,
Kasallik yengganda chopar do'xtirga.

Birovning dardini dardim deb o'ylar,
Barchani o'ziday mardum deb o'ylar.
Ezgulik qalbdagi qarzim deb o'ylar,
Kasallik yengganda chopar do'xtirga.

Isitmasi qirqu o'ylaydi bot-bot,
Ishim qolib ketdi, yotibman nahot.
Deydi-yu turishga yo'q unda holat,
Kasallik yengganda chopar do'xtirga.

Ba'zida jonimiz avaylanmaydi,
Tanimiz goh yayrab havolanmaydi.

O'zbek o'n yilda bir davolanmaydi,
Kasallik yengganda chopar do'xtirga.

2002 yil

QIZIMNING SHE'RI

Ayvonda paydo bo'ldi,
Tunda mushuk bolasi.
Rosa miyovladi u,
Bordek go'yo nolasi.
Men-chi dedim, dadajon,
Sizni qanday «eritsam».
Xo'p, desangiz mushukni,
Uyimizga kiritsam.
Dadam dedi: xo'p, kirit,
Kimdir olib ketmasin.
Mushuk bilan bo'lib lek,

Darsing qolib ketmasin.
Onam dedi: kerakmas,
Mushukmidi ermaging.
Timdalaydi yuzingni,
Qara uzun tirnog'i.
Yo'q, baribir onajon,
Bitta gapda qolaman.
Uzun bo'lsa tirnog'i,
Qaychi bilan olaman.

2000 yil

SOG'INDIM

Hadeb qizim tushmagur - qor haqida yozing der,
Qor haqida yozmabman o'ylab ko'rsam biror she'r.
Qor tugul yomg'irga ham tashna axir ona yer,
Nima qilay yog'masa, men ham qorni sog'indim.

Quriq keldi bu qish ham bekor qoldi tarnovlar,
Endi umid bahordan, ko'kdan kelsin siylovlari.
Yashillansin dala-dasht, qir-adirlar yaylovlari,
Maysalarning onasi gulbahorni sog'indim.

O'zga yurtda yarashmadi zar to'nim ham bo'yimga,
Bo'ldi, ketdim shoshayapman Vatanimga, uyimga.
Sog'inchlarim soya soldi birdan rangu-ro'yimga,
Vatanimni, qarindosh, el, do'sti-yorni sog'indim.

Bolaligim osmonida aylanganmi qushimga,
Qora qosh-ko'z, jamalak soch bir qiz kirar tushimga.
O'shamikan murg'ak sevgim, kelar bot-bot esimga,
O'sha qizni, bolalikni, keng anhorni sog'indim.

Men ham kutib yashayapman qordan-da oq bir tongni,
Uloqtirib uzoqqa g'am otlig' bir harsangni.
Kecha kecham chuzildi topolmadim bir rangni,
Ilhomimni qo'zg'agan tong-saharni sog'indim.

Nima yozsang yozaver deb, onam endi hech yonmas,
Lekin meni qishlog'imdan boshqa joyda tanimas.
Bir kun kelib shoir bo'lay hozirchamas, halimas.
Meni mashhur qiladigan keng shaharni sog'indim.

Qog'ozlarga to'kilmoxda quvonch, dardu alamim,
Meni hech kim ajratolmas, sendan nazmiy olamim.
Bo'shatmasman tutib oldim tizginingni qalamim,
Yuragimdan tug'ilajak she'r, ash'orni sog'indim.

2000 yil

DO'STIM MENI ALDAGAN KUNI

Yuragimga sig'maydi qil ham,
Tikan bo'lib tuyular gul ham.
Ishonchimga berilar barham,
Do'stim meni aldagan kuni.

Goh ichaman, goho chekaman,
Ko'zlarimga hayrat ekaman.
G'amgin bo'lib boshim egaman,
Do'stim meni aldagan kuni.

Ko'payadi sochda oq tolam,
Qilaverar negadir alam.
Oq qog'ozga yugurar qalam,
Do'stim meni aldagan kuni.

Izlaymanu topolmam dilso'z,
Qolgandayman tuyg'usiz, hissiz.
Mayli o'tay dunyodan do'stsiz,
Do'stim meni aldag'an kuni.

2002 yil

BIR KUNI TUGAYDI G'AMLAR ERTAGI

Bir kuni tugaydi g'amlar ertagi,
Armonlar poyimga cho'kadilar tiz.
Qalbimda ko'karar quvonch kurtagi.
Baxtim o'zligini qiladi ko'z-ko'z.

Bir kuni olovday yonib yasharman,
Dilgir xotirotni olmasdan esga.
Ezgulik yo'lidan qadam tashlarman,
Suyanib eng toza tuyg'uga, hisga.

G'animim do'stimga aylanar bir kun,
Toki aylanmasdan do'stim g'animga.
Orzular dilimda o'sadi durkun,
Muhabbat yugurar iliq qonimda.

Bir kuni gunohdan forig' bo'larman,
Ko'zimga singadi savob dunyosi.
Mabodo o'lsam gar g'olib o'larman,
O'lmasam onamning asrar duosi.

2000 yil

* * *

**Payg‘ambar ummati,
Biz musulmonmiz.
Va lekin goh dono,
Goho nodonmiz.**

**Bu yorug‘ dunyoga,
Ekanmiz qo‘noq.
Ne uchun ba‘zida,
Qilamiz gunoh.**

**Keldigu ketguncha,
Izlaylik javob.
Nimadir gunohu,
Nimadir savob.**

**Hali ham bor afsus,
Qabohat qahr.
Nechun yo‘qolmoqda,
Saxovat, mehr.**

**Vijdonlar sotilar,
Arzondir narxi.
Qolmadi halolu,
Xaromning farqi.**

**Qadringdan agarda,
Pul tursa ustun.
Aldaydi do'stlar ham,
Eng yaqin do'stin.**

**Bu qaysi qavmga,
Elga yarashar.
Farzand ota bilan,
Boylik talashar.**

**Goho ona bilan
Qiz kelishmaydi.
Og'a ini bilan
Yuz ko'rishmaydi.**

**Bariga pul sabab,
Mol dunyo sabab,
Boylik deb ha'zida
Bag'rimiz kabob.**

**Kimnidir goh otib,
Kimmnidir sotib.
Nafsning botqog'iga
Boryapmiz botib.**

**Haq desa barchamiz
Sukutga tolgan.
Yolg'onchi dunyo deb
Yashaymiz yolg'on.**

**Yomonlik tugamas,
Zamin ustida.
Yaxshilar yotibdi,
Yerning ostida.**

**Adolat tarafin
Olmaymiz min'bad.
Og'izni to'ldirib
Qilamiz g'iybat.**

**Nega tugamaydi,
Gina fisq-fasod.
Nega tark etmaydi
Qalblarni hasad.**

**Mo'ltirab to'kkanda,
Ko'zining yoshin.
Bir bor siladikmi
Yetimlar boshin.**

Hol ahvol so'rdikmi,
G'arib nochordan.
Ajal domidagi
Holsiz bemordan.

O, inson bolasi,
Hazrati inson.
Yashashga bir marta
Berilar imkon.

G'aflat uyqusidan
Turaylik endi.
Kimgadir yaxshilik
Qilaylik endi.

Biz axir bir millat,
Bitta dindamiz.
Barchamiz Allohga,
Birday bandamiz.

Bu bitik kimgadir
Botmasin og'ir.
Qog'ozga to'kildi,
She'r bo'lib oxir.

**Yig'lasang yig'larman,
Kulsang kularman.
Balki men to'pori,
Shoir bo'larman.**

**Yozmasam bo'ljadi,
Turolmadim jim.
Ey, elim dardingdan,
Yozdim bir chimdim.**

2002 yil.

DARVOZANGNING ORTI YURT

**Bo'sh kelmagin, bo'lma mo'rt,
To'p o'tkazma, to'p kirit.
Darvozangning orti yurt,
Olqishdan gullab yasab,
Tutqazay senga «Nasaf».**

**Muxlislaring soni ko'p,
Dilda hayajoni ko'p,
O'yna yurtning sha'ni deb,
Olqishdan gullab yasab,
Tutqazay senga «Nasaf».**

Kutar sendan g‘alaba,
Ishchi, hokim, talaba.
Mag‘lublikka yo‘lama,
Olqishdan gullab yasab,
Tutqazay senga «Nasaf».

Kezib chiqib dunyoni,
Hech qursa Osiyoni.
Tanit Qashqadaryoni,
Olqishdan gullab yasab,
Tutqazay senga «Nasaf».

Sevinch ulash lablarga,
Millionlab qalblarga.
Ishondik siz alplarga,
Olqishdan gullab yasab,
Tutqazay senga «Nasaf».

Boshimiz ko‘kda mudom,
Zafar-la yursang har dam.
Madhingdan tolmas O‘ktam,
G‘alabadan gul yasab,
Tutqazgin bizga «Nasaf!».

Mo'jaz bezatilgan archaga boqib,
Bugun yuragimni biroz yig'latdim.
Umr ham daryoday bormoqda oqib,
Umrimdan bir yilni yana kuzatdim.
Eski yil ketyapsan, ertaksan endi,
Tarix olamiga ermaksan endi.

Rozimiz, bizning-ku ko'nglimiz to'ldi,
Lek kimning ochilmay gullari so'ldi.
Nimalar bo'lindi ko'hna dunyoda,
Yaxshimi, yomonmi aytmayman, bo'ldi.
Eski yil ketyapsan, ertaksan endi,
Tarix olamiga ermaksan endi.

Mayli bir yoshgamas o'n yoshga qarit,
Lek dili o'ksiklar yo'lini yorit.
Yangi yil tilagim endi sen o'zing,
Dunyo ko'zidagi yoshlarni arit.
Eski yil ketyapsan, ertaksan endi,
Tarix olamiga ermaksan endi.

Ketyapsan, ketishing yaxshilikka yo'y,
Eski yil yig'lama, yig'lamagin qo'y.
Yilimdan bir yilni to'yna qildim,
Yilning kelishi to'y, ketishi ham to'y.
Eski yil ketyapsan, ertaksan endi,
Tarix olamiga ermaksan endi.

TILAGIM

Ko'nglimdan o'tkazdim, oppoq qor yog'sa,
Oqlikka, poklikka burkansa olam.

Sevinchlar har qalbning eshigin qoqsa,
Dillardan quvg'indi bo'lsa g'am-alam.

Ko'nglimdan o'tkazdim, oppoq qor yog'sa,
Shu oppoq qorlarda boladay chopsam.
Ko'zimdan sog'inchning ashklari oqsa,
Bolabik, men seni qaytadan topsam.

Ko'nglimdan o'tkazdim, oppoq qor yog'sa,
Qarg'alar aylanib qolsa oqqushga.
Muhabbat quyoshi boshlarda balqsa,
Sevgilar aylansa ilohiy ishqqa.

Ko'nglimdan o'tkazdim, oppoq qor yog'sa,
Gunoh rohlariga yo'l amasa dil.
Ezgulik chirog'in har inson yoqsa,
Yovuzlik ko'zasi sinsaydi chil-chil.

Ko'nglimdan o'tkazdim, oppoq qor yog'sa,
Lek hasad yog'masa dil osmonidan.
Barcha havas bilan bir-biriga boqsa,
O'tmasa fisq-fasod, g'iybat yonidan.

Ko'nglimdan o'tkazdim, oppoq qor yog'sa,
Qalblardan manguga joy olsa mehr.
Ammo bir ilinjim, bir o'tinchim bor,
Qorlar erimasa, erisa qahr.

AMIR TEMURNING BUGUNGI KUNGA NAZARI

Sarboni zo't karvonning, yonidan yov
o'tolmas,
Karvon ketdi ilgari, endi yog'iy yetolmas.
Bag'rikeng bu bag'irni hech bir kimsa
titolmas,
It hursa ham karvoning yo'lida ekan,
ming shukur,
Saltanatim ishonchli qo'lida ekan, ming
shukur.

Insholloh, avlodlar angladilar o'zligin,
Qo'lida mahkam tutgancha, Ozodlikning
tizginin.

To'rt, besh yilga jo qildi, asrlarning
tezligin,
It hursa ham karvoning yo'lida ekan ming
shukur.

Saltanatim ishonchli qo'lida ekan, ming
shukur.

El-ulusning, millatning ko'ngil uylari
obod,
Al-Buxoriy, Farg'oniy, Yassaviyning
ruhi shod.
Farzandlarim yurt kezar, hur fikr ekan
avlod,
It hursa ham karvoning yo'lda ekan,
ming shukur.
Sultanatim ishonchli qo'lida ekan, ming
shukur.
Bilaman, so'ldi qancha bo'y ko'tsatmay
chechaklar,
Bu tuproqni toptadi necha olg'ir
olchoqlar.
O'ylamovdim chiqar deb vatanfurush,
qochoqlar,
It hursa ham karvoning yo'lida ekan,
ming shukur.
Sultanatim ishonchli qo'lida ekan, ming
shukur.
Millatimga, Vatanga, Olloh berar
to'zim bor,
Sultanatda dunyoviy adolatli tuzum bor.
Tuzuklarim bor ekan, demak mening o'zim
bor,

**It hursa ham karvoning yo'lda ekan,
ming shukur.**

**Saltanatim ishonchli qo'lda ekan, ming
shukur.**

**Vujuding chulg'asa agar bemorlik,
Tushkunlik qo'lidan gar olsang yorliq.
O'zingni o'tga ham, cho'qqa ham urib,
Bu olam ko'nglingga qilsa gar torlik
Uchragin tabibu ham shifokorga,
Avval iltijo qil Parvardigorga.**

**Haqsizlik mabodo qaddingni egsa,
Kimilardir dilingga azoblar eksa.
Adolat yo'q dema, ko'krak mushtlama,
Malomat toshlari senga ham tegsa.
Vaqt kelar, duch qilar bir najotkorga,
Avval iltijo qil Parvardigorga.**

**Miskinsan, yurishmay turibdi ishing,
Bir boshda ming xayol, mingta tashvishing.
Tunlari uyqungda yo'qdir halovat,
Kunduzi boshingdan uchguday hushing.
Shunda qul bo'lmaq hech ohu zorga,
Avval iltijo qil Parvardigorga.**

**Sevgi ham manglayga bitilgan qismat,
Har kimga ko'nglingni qo'yimagin bot-bot.
Sevginu sevilgil o'shanda shaksiz,
Eng ezgu ishlarga eltar muhabbat.
Magar uchray desang vafodor yorga,
Avval iltijo qil Parvardigorga.**

**Do'st har xil bo'ladi, ko'rsatar hayot,
Molingga do'st bo'lsa, bo'lgin ehtiyot.
Quvonchu g'amingga bo'lmasa sherik,
Ul do'stdan yaxshiroq begona-yu yot.
Do'st tutinay desang eng hokisorga,
Avval iltijo qil Parvardigorga.**

**Bu dunyo yaralgan asli biri kam,
O'ksik ko'ngillarga beraylik malham.
Elga el bo'laylik qilib yaxshilik,
Yaxshilikdan o'zga ne qolar, O'ktam.
Baxt tila jamiki g'arib, nochorga,
Avval iltijo qil Parvardigorga.**

TAQDIR

Anovi odamning holiga qara,
Egnida kiyimi ketibdi to'zib.
Kimdir bechorani qildi masxara,
Nimadir degandi qo'lini cho'zib.

U-ku shu ahvolga tushmagan atay,
Yoki yaratgandan olmagan so'rab.
Taqdiri shu ekan, tolei shunday.
Chordevor singari boryapti nurab.

Uni ham tuqqandir bir munis ona,
Bolam, deb beshigin kimdir tebratgan.
Bilmam qanday bo'lgan u payt zamona,
O'z davrin yo'rig'i albat, ulg'aytgan.

Ulg'aygan va so'ngra hayot tashvishin,
Ming bir azobiga berolmagan dosh.
Qo'ldan boy bergandir balki baxt qushin,
Kelgan balolarga topolmay bardosh.

Endi yashamoqqa saboti yo'qdek,
Hayot sinoviga bir-bir yutqazar.
Simyog'och tagida turganicha tik,
To'rt-besh so'm pul tilab, kunin o'tkazar.

O, hayot bunchalar sirlisan, mujmal,
Kim nima bo'lishin o'ylab ham ko'rmas.
Insonni taqdir deb atalgan shamol
Qay ko'yga soladi hech kimsa bilmas.

«Faqat Yaratganga barchasi ayon»,
Yoddan chiqmasa bas bu oddiy hikmat.
Bir marta mehmondir dunyoga inson,
Har kimga baxt bergin, omad ber, qismat!

AYOLNI KAMSITMANG

Ayolni kamsitmang, og'ritmang dilin,
Uni xo'rlamoqlik fikridan qayting.
So'ldirmang yurakda asragan gulin,
Hech qursa, bir marta shirin so'z ayting.

Ayolni avaylang sevib, ardoqlang,
Toshbag'ir bo'lmanqiz bo'lmanq muz yurak.
Ma'yus nigohiga boqing, bir qarang.
U Sizni sevadi, unga Siz kerak.

U ham orzularin qalbiga ekib,
Xayol osmonida qiladi parvoz.
Agar kechiksangiz yo'lga ko'z tikib,
Kutadi tunlari chiqqancha peshvoz.

**Nafsu hirs qalblarga bo'lmasin xoqon,
Shundoq ham noyob-ku, axir diyonat.
Men Sizga tilayman, insofu imon,
Ayolga zarracha qilmang xiyonat.**

**Ayolga baxt degan so'imas gul bering,
Yashashdan shunda bir ma'no bo'ladi.
Unga bir yelkadosh kabi qo'l bering,
Axir u Buyuk zot – ONA bo'ladi.**

BILMAYMAN, MEN QACHON ODAM BO'LAMAN

**Egik qaddingizga ma'yus qarayman,
Olisdan xayolan ahvol so'rayman.
Ona, kuningizga qachon yarayman,
Shoir bolam deysiz, yomon bolaman,
Bilmayman, men qachon odam bo'laman?**

**Mehrimni shaharga berib qo'yibman,
Topgan-tutganimni yeypman, kiyibman.
O'zimni bunchalar qattiq sevibman,
Tobokay pul so'rab Sizdan yulaman,
Bilmayman, men qachon odam bo'laman?**

Baxtni qidiraman baxt topolmayman,
Ba'zida shiddatu shaxd topolmayman.
Qishloqqa borishga vaqt topolmayman,
O'zimning ustidan goho kulaman,
Bilmayman, men qachon odam bo'laman?

Keltirdim o'zimning o'zim g'ashimni,
U kun tanimayman qarindoshimni.
Qizardim yer chizib egib boshimni,
Kimgadir tog'aman, kimga bulaman,
Bilmayman, men qachon odam bo'laman?

Yuribman she'r yozib dalli, devona,
Bu azim shaharda yolg'iz, yagona.
Men shunday yaralgan ekanman ona,
Agar she'r yozmasam aniq o'laman,
Bilmayman, men qachon odam bo'laman?

ONAMGA

Armonni bir chetga surib yuribman,
G'amlardan yuzimni burib yuribman.
Onajon, Siz mendan tortinmang zinhor,
Men-ku o'z kunimni ko'rib yuribman.

O'zingiz sog'misiz, o'zingiz omon,
Xayolan holingiz so'rayman hamon -
Qishloqqa borishga vaqt topolmayman,
Demak, men yomonman, demak, men yomon.

Negadir ko'nglim g'ash, qiyaydi savol,
Og'a-inilarim so'rmoqdamni hol?
Egik qaddingizni yanada egib,
Azob bermayapmi kimdir ehtimol.

Qiyomat bo'lsa ham qilmas ohu zor,
Shunday yaralganda eh, onaizor.
Bilaman, onajon aytmasangiz ham,
Dardman dilingizga yetyapti ozor.

Bardosh osmonida so'nmagan onam,
G'amlar yo'rig'iga ko'nmagan onam.
O, siz-ku otamning o'rni bildirmay,
Bizlarni o'stirib, o'nmagan onam.

Sog'inchni qalbimga qorib kelaman,
Dardlashib dardimni yorib kelaman.
Dunyo tashvishlari tegdi jonimga,
Borib duongizni olib kelaman.

SHIFOXONADA

Bilaman, ertaga ketasan aniq,
Huvillab qoladi so'ng shifoxona.
Qarayman xonangning chirog'i yoniq,
Lekin u zimiston, sen yo'q, yagona.

O'taman, qaytaman yo'laklar bo'm-bo'sh,
Sarg'aya boshlaydi sog'inchim rangi.
Sen yo'qsan yurakda armon bir hovuch,
Sening kulgilaring chiqmas jarangi.

Ketyapsan o'zimga kelmog'im qiyin,
Toki bir haftami bir oy, balki yil.
Baribir sog'inib yashayman keyin,
Bardoshning ko'zasi sinadi chil-chil.

Shunda she'r yozaman, senga, sen haqda,
Nigohi sevinchli goho munglimga.
Qattiqroq o'ylayman seni shu chog'da,
Aylanib qolasan faqat singlimga.

2000 yil.

(*Qish quruq kelsa, «Endi baborini bersin» deyishadi keksalarimiz*)

O'zimizcha mo''jizalar kutgandaymiz,
Eson-omon bu qishdan ham o'tgandaymiz.
Ko'klamoyning qo'llaridan tutgandaymiz,
Baborini bersin endi, baborini.

Ko'nikkandik ko'kdan kelar siyovlarga,
Qor-yomg'ir yo'q, qolgandaymiz o'ylovlarg'a.
Qushlar uya qurib oldi tarnovlarga,
Baborini bersin endi, baborini.

Garchand qishu lekin esar yoz ifori,
Avvalgidek qahraton qish qani, qori.
Ob-havoga nima bo'ldi, bormi kori,
Baborini bersin endi, baborini.

Tabiatga bog'liq ochu to'qligimiz,
Pand beradi ba'zan esa sho'xligimiz.
Yo, shu bois o'zgardimi iqlimimiz,
Baborini bersin endi, baborini.

Qarang, dehqon ko'kka ko'zin tikayotir,
Orzularin urug' kabi ekayotir.

Ko'zlarida ming hadigu, ming xavotir,
Bahorini bersin endi, bahorini.

Qutlug' kelsin ostonangda turgan ko'klam,
Bag'ring ochib barakaga burkan o'lkam.
Dehqon dardin she'rga soldi o'g'ling O'ktam,
Bahorini bersin endi, bahorini.

2007 yil.

* * *

Kimlardir ilonning yog'in yalashar,
Farzand ota bilan boylik talashar.
Gunohlar ustiga gunoh qalashar,
Ba'zilar Xudodan qo'rqlay qo'ydilar.

Har qalbda jam bo'lib saxovat, mehr,
Qachon tugar ekan qabohat, qahr.
Dunyoni qutqarib qolaylik axir,
Ba'zilar Xudodan qo'rqlay qo'ydilar.

* * *

Mayli bugun to'yib yig'la,
Ota – uyim, xush qol, de.
Dasturxonning atrofida,
Sening o'rning bo'sh qoldi.
Paloxmonning toshiday,
Otilar qiz qaylarga.

**Seni bugun uzatamiz,
Sinalmagan joylarga.
Bir hovlida kurtak otdi,
O'n yetti yil niholing.
O'n yetti yoz, o'n yetti kuz,
O'n yetti qish, bahoring.
O'g'illarning o'rmini,
Bosarmidi kuyovlar.
Qiz ulg'aysa egalik,
Qilar ekan birovlar.
Ko'nikkuncha yurakni,
Sog'inch tig'i tig'laydi.
Qahri qattiq otalar ham,
Qiz uzatsa yig'laydi.
Xush bor deyman ko'zimdag'i,
Sevinch yoshni sidirib.
Bolaliging o'tgan uyg'a,
Kelib turgin qidirib.
Qaynonangu, qaynotangga,
Kelin emas, qiz bo'lgin.
Kuyov agar uzuk bo'lsa,
Sen uzukka ko'z bo'lgin.**

Huv, anna, ha, o'sha mening qishlog'im,
Bolaligim o'tgan sirli maskanim.

Huv, anna, yurganlar bari xeshlarim,
Tog'amdir, xolamdir, do'sti-yor inim.

Huv, tepe qabriston, bor otam qabri,
Momom ham shu yerda yotibdi mangu.
Qabriston emas u marhumlar sabri,
Shu yerdan otajak bardoshning tongi.

Bu esa suvga zor bo'lgan Qumdaryo,
Eslatar endi u qumlar barxanin.
Esim tanibmanki, hamon jim daryo,
Sira ko'rmanaganman to'lib oqqanin.

Hali ham bor ekan eski tegirmon,
Ishlardi bo'g'doy yuz, bo'g'doy so'zli chol.
Barchaga bidayin edi mehribon,
Dunyodan o'tgandir u ham ehtimol.

Atrofin paxsali devor o'ragan,
Huv, uyda odam ko'p kuy kelayapti.
Er-xotin o'n besh yil farzand so'ragan,
Xudo o'g'il bergen to'y qilyapti.
Befarq o'tolmayman bir uy oldidan,

**Goh masrur, goh mahzun suraman xayol.
Murg'ak muhabbatim tushar yodimga,
Huv, uyda yashaydi eng suluv ayol.**

**Qishlog'im ustidan o'tyapman biroq,
Yechilar afsusu xayol tugunim.
Bag'ringda qolmadim jonajon qishloq,
Ona yoningizda o'tmas bugunim.**

**Qishloq ortda qoldi yo'ldamiz hamon,
Yo'l olis, ketmapmiz goh mudrab, xorib.
Men deyman qaytaman bir kun onajon,
Bir olam sog'inchni qalbimga qorib.**

МУНДАРИЖА

Хайр энди	3
Согинчлар сарғаяр	4
Асрайди тангрим ва дўстларнинг меҳри	5
Аёлимга	6
Сен ҳақда шеър битсам...	7
Айт, нечун келдингу кетялсан нечун	8
Чин дуст	9
Бу қиз бунча сулув-а	10
Сенсиз юрагимга сигмади баҳор	12
Эслама	13
... Нинг шеъри	15
Оғир кун	16
Болалигим	18
Ёлғончи ёр	19
Ғаламис	20
Аён бўлар охиратда	21
Деҳқон злим	22
Мезбон	24
Тангрининг айтгани бўлади	25
Иқрор	26
Бир қизки	27
Хуш келсин баҳоринг, кўклам сайили	29

Айт, сенинг қалбингни нелар тиғлагай	30
Йўқ, шундай юрмасман	31
Сулув қиз	32
Ошиқ экан	33
Сочингизни кесибсиз-ай	35
Касаллик енгтанда	36
Қизимнинг шеъри	37
Софиндим	38
Дўстим мени алдаган куни	39
Бир куни тугайди ғамлар зартаги	40
Дарвозангнинг орти юрт	45
Тилагим	47
Амир темурнинг бугунги кунга назари	49
Тақдир	52
Аёлни камситманг	54
Билмайман, мен қачон одам бўламан	55
Онамга	56
Шифохонада	57

Адабий-бадиий нашр

**ЎҚТАМ САДИН
БАРДОШ ТОНГИ**

**Муҳаррир
Амир ХУДОЙБЕРДИ**

**Техник муҳаррир
Елена ДЕМЧЕНКО**

**Мусаҳдиқ
Даврон РАЖАБ**

**Компьютерда сағифаловчи
Феруза БОТИРОВА**

Босишига 18.09.2007 й.да рухсат этилди. Бичими 60x84 1\32.

Босма тобоги 4,0. Шартли босма тобоги 6,72.

Адади 500 нусха. Буюртма № 217.

Баҳоси келингилган нархда.

«Янги аср авлоди» нашриёт-матбаа марказида тайёрланди.

«Ёшлар матбуоти» босмахонасида босилди.

100113. Тошкент, Чилонзор-8, Қатортол кўчаси, 60.

Мурожаат учун телефонылар:

Нашр бўлими – 278-36-89;

Маркетинг бўлими – 128-78-43

факс — 173-00-14; e-mail: yangiasravlodij@mail.ru